2026-yil 18-may kungi
07-005-sonli buyruqqa ilova

DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG‘LIQ TARTIB-TAOMILLARNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH TARTIBI TO‘G‘RISIDA NIZOM

KIRISH QOIDALARI

Mazkur Nizom “Uzautocomponents” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (keyingi o‘rinlarda Jamiyat) ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.O‘zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son Qonuni.

2.O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni.

3.O‘zbekiston Respublikasining 03.07.2023 yildagi “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ-850-son Qonuni.

4.O‘zbekiston Respublikasining 14.01.2021 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-666-son Qonuni.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.06.2021 yildagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-son Farmoni.

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.11.2025-yildagi “Davlat korxonalarida tannarxni kamaytirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi F-59-son Farmoni.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.01.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5624-son Farmoni.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.07.2021 yildagi “Davlat xaridlari shaffofligini ta’minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5171-son Qarori.

9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.08.2020 yildagi “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4812-son Qarori.

10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.12.2019 yildagi “Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4544-son Qarori.

11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi “Tovar-xomashyo birjalari faoliyati samaradorligini oshirish va birja savdosi mexanizmlarini yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi PQ-4484-son Qarori.

12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.05.2019 yildagi “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4302-son Qarori.

13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.12.2025-yildagi “Davlat

xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-son Farmoni.

14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022 yildagi “Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-332-son Qarori.

15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.11.2017 yildagi “Yoqilg‘i-energetika resurslari hamda boshqa yuqori likvidli mahsulotlar bilan ta’minlash borasida raqobat muhitini takomillashtirish, suiiste’molchiliklar va talon-torojliklar sharoitini tugatish, to‘lov intizomini mustahkamlash, debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3386-son Qarori.

16.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.05.2022 yildagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-son Qarori.

17.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.01.2021 yildagi “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 41-son Qarori.

18.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.09.2019 yildagi “Raqamli transformatsiya markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining elektron kooperatsiya portalida axborotni joylashtirish va xaridlarni amalga oshirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 833-son Qarori.

19.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.02.2025 yildagi “Davlat xaridlarida Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 102-son Qarori.

Izoh: Ushbu Nizomda keltirilgan qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritilgan taqdirda, ularning kuchini yo‘qotgan taqdirda yoki tegishli munosabatlarni tartibga soluvchi yangi qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan taqdirda, Nizomning tegishli bandlari mazkur o‘zgartirishlar va yangi hujjatlarga muvofiq qo‘llaniladi.

MUQADDIMA

Jamiyatning xarid bo‘yicha mas’ul vakolatli tarkibiy tuzilmaviy bo‘linma (keyingi o‘rinlarda – vakolatli bo‘linma) Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga muvofiq, Xaridlar, ta’minot va logistika boshqarmasi hisoblanadi.

Jamiyat ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmatlar) xaridlari vakolatli bo‘linma tomonidan mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Vakolatli bo‘linma O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa xarid qilish tartib-taomillari va jarayonlarni ham qo‘llashi mumkin.

MAQSAD

Jamiyat va uning bo‘linmalarini belgilangan muddatlarda optimal shartlarda tegishli sifatli tovarlar (ishlar, xizmatlar) bilan ta’minlash.

BELGILASH VA QISQARTMALAR

Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

BHM – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan bazaviy hisoblash miqdori;

Xarid komissiyasi – xarid qilish tartib-taomillari doirasida qaror qabul qilish uchun vakolatli kollegial organ;

Xarid qilish uchun buyurtma (matnda keyingi o‘rinlarda XB)– Jamiyat rahbariyati tomonidan ma’qullangan va tasdiqlangan, xarid qilish tartib-taomillarini boshlash uchun asos bo‘ladigan ruxsat beruvchi hujjat;

TIX – tovarlar (ishlar, xizmatlar);

ERI– elektron raqamli imzo;

EDO – elektron hujjat aylanishi tizimi;

Buyurtmachi– XBni tashabbus qiluvchi va chiqaruvchi «Uzautocomponents” MCHJning tarkibiy tuzilmaviy bo‘linmasi;

Jamiyat– «Uzautocomponents” mas’uliyati cheklangan jamiyati;

Xarid hujjatlari (matnda keyingi o‘rinlarda XH) – sotib olinadigan TIXning buyurtma beruvchi tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlash imkonini beruvchi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olgan hujjatlar. Bunda, bunday ko‘rsatkichlarning maksimal va (yoki) minimal qiymatlari, shuningdek, o‘zgartirilishi mumkin bo‘lmagan ko‘rsatkichlar qiymatlari ko‘rsatiladi.

Zarur bo‘lganda, buyurtma beruvchi TIXning kafolat muddati va (yoki) ularning sifat kafolatlarini taqdim etish hajmi, tovarlarga kafolatli xizmat ko‘rsatish, tovarlarni ekspluatatsiya qilish xarajatlari, tovarlarni o‘rnatish va sozlash zarurligi, tovarlardan foydalanish va ularga xizmat ko‘rsatishni amalga oshiruvchi shaxslarni o‘qitishga talablar o‘rnatadi;

Vakolatli bo‘linma – Jamiyatning xarid bo‘yicha mas’ul vakolatli tarkibiy tuzilmaviy bo‘linmasi;

Texnik topshiriq (matnda keyingi o‘rinlarda TT) – buyurtma beruvchining TIXning asosiy parametrlariga, uning tavsifiga, birlamchi ma’lumotlarning tavsifi, xaridning maqsad va vazifalari, tovar yetkazib berish muddatlari, sifat kafolatlari, hisobotlarning tavsifi va hajmi, shakllari (zarur bo‘lganda), TIXlarga talablarning asoslanishi, ekvivalent ko‘rsatkichlar, iqtisodiy, boshqa maxsus talablarni o‘z ichiga olgan hujjat;

Yirik bitim – Jamiyat mulkini olish yoki undan voz kechish bilan bog‘liq bo‘lgan bitim (shu jumladan, qarz, kredit, garov, kafolat) yoki bir nechta o‘zaro bog‘liq bitimlar, agar voz kechiladigan mulkning balans qiymati yoki sotib olinadigan mulkning qiymati jamiyatning sof aktivlari miqdorining 15% (o‘n besh foiz) dan ortiq bo'lsa, bunday qaror qabul qilingan sanada bitimlarni tuzish, joriy xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida amalga oshiriladigan bitimlar va aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bilan bog‘liq bitimlar bundan mustasno;

Ekspertiza bo‘yicha vakolatli organ – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy

rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK;

Komplayens xizmati – Jamiyatning komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti;

Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

Benefitsiar mulkdor — TIX yetkazib beruvchisining mulk huquqiga oxir-oqibatda ega bo‘lgan yoki haqiqatda nazorat qiluvchi jismoniy shaxs;

Boshlang‘ich narxni pasaytirish bo‘yicha auksion (keyingi o‘rinlarda - auksion) — davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli bo‘lib, uni tashkil etishda g‘olibni aniqlashning yagona mezoni narx hisoblanadi;

Birgalikdagi davlat xaridlari — Ikki va undan ortiq davlat korxonalari bir turdagi tovarlar, ishlar, xizmatlarni xarid qilishda auksion, tanlash, tender vositasida birgalikdagi davlat xaridlarini amalga oshirish;

Dastlabki malakaviy tanlov — xarid hujjatlarida belgilangan texnik, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa xususiyatlarga mos keladigan xarid tartib-taomillarini o'tkazishga ruxsat etilgan xarid tartib-taomillarining malakali ishtirokchilarini tanlov bo‘yicha xarid komissiyasi tomonidan o‘tkaziladigan tartib;

Zaxiradagi g‘olib— xarid qilish tartib-taomillarining ishtirokchisi, uning taklifi xarid komissiyasining qaroriga muvofiq g'olib taklifidan keyingi eng maqbul deb tan olingan;

Tender — davlat xaridlarining bir turi bo‘lib, davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli tartibi orqali davlat xaridlari ijro etuvchisini aniqlash tartibini nazarda tutadi, uning natijalariga ko‘ra davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi g‘olib deb tan olinadi;

Xarid qilish tartib-taomili — davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlar majmui;

Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining affillangan shaxsi — qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan va (yoki) ta’sir ko‘rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs, shu jumladan ushbu xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining qarorlarini qabul qilishga yozma kelishuv asosida, ayni paytda ushbu xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan shunday huquqqa ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

Shartnomalarning yagona reyestri — davlat buyurtmachilari tomonidan tuzilgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalar reyestri, u davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ tomonidan maxsus axborot portalida yuritiladi;

Maxsus axborot portali (matnda keyingi o‘rinlarda – MAP) – davlat xaridlarini o‘tkazishni, davlat xaridlari to‘g‘risidagi e’lonlarni, davlat xaridlari yakunlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, tanlov ishtirokchilarining takliflarini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ma’lumotlarni elektron shaklda joylashtirish va ko‘rish imkoniyatini ta’minlaydigan MAP operatorining veb-sayti va maxsus

elektron platformasi, shuningdek elektron davlat xaridlarini o‘tkazish;

Elektron davlat xaridlari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali davlat xaridlarini amalga oshirish shakli;

Elektron do‘kon— o‘ziga xos talablar qo‘yilmaydigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli bo‘lib, davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonchada elektron shaklda savdo o'tkazishni nazarda tutadi;

Eng yaxshi takliflarni tanlash (matnda keyingi o‘rinlarda - tanlash) – xarid qilish tartib-taomillarining bir nechta ishtirokchisidan olingan takliflarni solishtirish asosida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

E’lon — davlat buyurtmachisi tomonidan davlat xaridlarining elektron tizimi orqali maxsus axborot portalida joylashtiriladigan, amalga oshirish usuli, talablari va davlat xaridlarining shartlari, takliflarni taqdim etish muddatlari va tartibi ko‘rsatilgan kelgusi davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot xabari;

G‘olib — xarid qilish tartib-qoidalarida ishtirok etuvchi, uning taklifi xarid qilish tartib-qoidalari yakunlari bo‘yicha eng maqbul deb topilgan ishtirokchi;

Aynan bir xil TIX – bir ishlab chiqaruvchi (xizmat ko‘rsatuvchi, ish bajaruvchi) tomonidan aynan bir xil texnologik jarayonga asosan ishlab chiqarilgan (xizmat ko‘rsatilgan, ish bajarilgan), tarkibi, nomi (shu jumladan, modeli, savdo belgisi, turi bo‘yicha) va TIF TN kodlari yoki Yagona milliy klassifikator kodi bo‘yicha bir xil tavsiflangan TIX;

O‘xshash TIX – zarur bo‘lgan TIX bilan har jihatdan bir xil bo‘lmasa-da, u bilan o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lganligi va tarkib jihatdan o‘xshashligi tufayli bir xil vazifalarni bajara oladigan hamda tijorat nuqtayi nazaridan, shu jumladan sifati, bozordagi qadri, tovar (ish, xizmat) belgisining mavjudligiga ko‘ra uning o‘rnini bosa oladigan tovar (ish, xizmat);

Vositachilik yig‘imi – davlat xaridlarining elektron tizimi operatorining xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog‘liq xizmatlari uchun undiriladigan yig‘im;

Zakalat – Jamiyat tomonidan elektron do‘kon yoki boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion natijasida tuzilgan shartnoma bo‘yicha to‘lovlar to‘liq hajmda amalga oshirilishini ta’minlash hamda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari tomonidan o‘zlarining takliflarini ta’minlash usuli;

Hisob-kitob-kliring palatasi (keyingi o‘rinlarda - HKKP) – avans to‘lovlarini deponentlash va ularni hisobga olish yo‘li bilan davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajara oladigan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari elektron davlat xaridlariga kirishini ta’minlovchi davlat xaridlari elektron tizimining tarkibiy bo‘linmasi.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Jamiyatning tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish bo‘yicha ushbu Nizomi (keyingi o‘rinlarda – Nizom) xarid qilish tartib-qoidalarida ishtirok etuvchilarning harakatlar ketma-ketligini tavsiflaydi, xaridlarni tashkil etish

tartibini, ularda ishtirok etish shartlarini, takliflarni ko‘rib chiqish tartibi va Jamiyatning tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qarorlar qabul qilish tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Nizom Jamiyat tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni o‘z ehtiyojlari uchun xarid qilish uchun qo‘llaniladi, qonunchilikda xaridlarni o‘tkazishning boshqa tartibi nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

1.3. Jamiyat o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, shuningdek, davlat xaridlari sohasini tartibga soluvchi boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga qat’iy rioya etadi. Nizomda nazarda tutilgan barcha bosqichlar va tartib-taomillar mazkur huquqiy asosga muvofiq amalga oshiriladi.

1.4. Jamiyat qarorlarini belgilash imkoniyatiga ega bo‘lgan soha korxonalari xaridlar bo‘yicha shunga o‘xshash Nizomlarni ishlab chiqadi, ular ushbu Nizomga zid bo‘lmasligi kerak.

2. Xaridlarni amalga oshirishga tayyorgarlik

2.1. Jamiyatning davlat xaridlariga tayyorgarligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- maxsus axborot portalida davlat xaridlarining reja-jadvallarini joylashtirish;
- qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollarda elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun avans to‘lovlarini kiritish;
- davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat xaridlari o‘tkazilishi haqidagi e’lonlarni joylashtirish.

3. Xaridlarni rejalashtirish

3.1. Jamiyatning tarkibiy tuzilmaviy bo‘linmalari o‘z faoliyatini ta’minlash uchun ehtiyojlardan kelib chiqib, kelgusi kalendar yilida xarid qilinishi rejalashtirilgan TIX bo‘yicha tasdiqlangan shakldagi yillik reja-jadvalni shakllantiradi va har yili 30-oktabrga qadar EDO orqali vakolatli bo‘linmaga yuboradi. Tarkibiy bo‘linmalar choraklarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan xaridlar bo‘yicha choraklik reja-jadvallarini joriy chorakning oxirgi oyidagi 10-sanaga qadar EDO orqali vakolatli bo‘linmaga yuboradi. TIXlar tarkibiy bo‘linma rahbari tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi shart. Bunda, TIXning batafsil texnik tavsifi ochiq ma’lumot manbalarida ushbu TIXlar bo‘yicha bozor narxlarini aniqlash imkonini beradigan darajada to‘liq va aniq bo‘lishi lozim.

3.2. Kelib tushgan yillik yoki choraklik reja-jadval ma’lumotlari Vakolatli bo‘linma tomonidan ularni olgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida dastlabki tartibda konsolidatsiya qilinadi va reja-jadvalda ko‘rsatilgan TIXlar ularning mavzusi va yo‘nalishiga mas’ul bo‘lgan tegishli boshqarmalarga EDO orqali ko‘rib chiqish uchun yuboriladi.

3.3. Tegishli boshqarmalar TIXlarni o‘z vakolatlari doirasida texnik tavsiflarning to‘g‘riligi, ehtiyojning asoslanganligi va narxlarning bozor sharoitlariga mosligini baholaydi hamda yuborilgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida EDO orqali vakolatli bo‘linmaga xulosa taqdim etadi. Belgilangan muddatda

xulosa taqdim etilmagan taqdirda, vakolatli bo‘linma mavjud ma’lumotlar asosida jarayonni davom ettiradi.

3.4. Vakolatli bo‘linma tegishli boshqarmalar xulosalarini olganidan so‘ng 2 ish kuni ichida reja-jadvalni yakuniy konsolidatsiyadan o‘tkazadi hamda EDO orqali Jamiyat rahbariyatiga tasdiqlash uchun kiritadi.

3.5. Jamiyat rahbariyati tomonidan tasdiqlanganidan so‘ng, vakolatli bo‘linma reja-jadvalni Korporativ kotibiyatga 5-dekabrga qadar topshiradi (choraklik reja-jadval - joriy chorakning oxirgi oyidagi 15-sanaga qadar).

3.6. Korporativ kotibiyat yillik reja-jadvalni kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun kiritadi va tasdiqlangan yillik reja-jadvalni joriy yilning 20-dekabrga qadar vakolatli bo‘linmaga topshiradi (choraklik reja-jadval — joriy chorakning oxirgi oyidagi 20-sanaga qadar).

3.7. Vakolatli bo‘linma tasdiqlangan yillik reja-jadvalni 25-dekabrgacha MAPga joylashtiradi (choraklik reja-jadval — joriy chorakning oxirgi oyidagi 25-sanaga qadar).

3.8. Reja-jadvalga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar qonunchilikda va ushbu Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.9. Reja-jadvalning shakli:

202_-yil uchun davlat xaridlarining yillik REJA-JADVALI

"Uzautocomponents" MCHJ
Andijon shahri,Bobir shoh ko'chasi 73-uy.
Moliyalashtirish manbasi: "Uzautocomponents" MCHJning o'z mablag'lari
Tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish
va xizmatlarni ko'rsatish joyi (manzili): Andijon shahri,Bobir shoh ko'chasi 73-uy.
(xarid jarayonida manzil o'zgarishi mumkin)

T/r	Buyurtmachi (bo'linma)	Xarid predmeti	kub	O'lchov birligi	Tovar(ish, xizmat) klassifikator kodi	Mahalliy yoki import	JAMI		shundan																													
									I chorak		jumladan						II chorak		jumladan						III chorak		jumladan						IV chorak		jumladan					
											yanvar		fevral		mart				aprel		may		iyun				iyul		avgust		sentyabr				oktyabr		noyabr		dekabr	
№	Buyurtmachi (bo'linma)	Xarid predmeti	kub	O'lchov birligi	Tovar(ish, xizmat) klassifikator kodi	Mahalliy yoki import	miqdori	summasi	miqdori	summasi	miqdori	narsi	miqdori	narsi	miqdori	narsi	miqdori	summasi	miqdori	narsi	miqdori	narsi	miqdori	narsi	miqdori	summasi	miqdori	narsi	miqdori	narsi	miqdori	narsi	miqdori	summasi	miqdori	narsi	miqdori	narsi	miqdori	narsi
1																																						
2																																						
3																																						
...																																						

4. Xarid qilish uchun buyurtma

4.1. Jamiyatning tarkibiy tuzilmaviy bo‘linmalari XBni EDO orqali mazkur nizomda tasdiqlangan shaklga muvofiq import TIX uchun - yetkazib berish zarur bo‘lgan sanadan 6 oy oldin, mahalliy TIX uchun - 3 oy oldin shakllantiradi.

4.2. Jamiyatning tarkibiy tuzilmaviy bo‘linmalari mazkur Nizomda belgilangan shaklga muvofiq, import TIX bo‘yicha yetkazib berish zarur bo‘lgan sanadan kamida 6 oy oldin, mahalliy TIX bo‘yicha esa 3 oy oldin EDO orqali xarid buyurtmasini (XB) shakllantiradi hamda VB va G‘aznachilik va moliya boshqarmasiga kelishish uchun, Jamiyat rahbariyatiga tasdiqlash uchun kiritadi.

4.3. XB xaridning maqsadga muvofiqligi va zarurligini, tanlangan tovar (ish, xizmat)ning iste’mol xususiyatlarini, real ehtiyojlarni samarali qondirishni ta’minlaydigan sifat ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda shakllantirilishi lozim.

4.4. TIXning xarid tavsifi xolis, funksional va umumiy xususiyatga ega bo‘lishi, shuningdek TIXning tegishli texnik va sifat ko‘rsatkichlari, shuningdek zarur hollarda ekspluatatsiya shartlari ko‘rsatilishi kerak.

4.5. TIX tavsifi TIXning texnik xossalaridan kelib chiqib, tasniflar, rejalar, chizmalar, eskizlar, talablar, sinovlar va sinov usullari, qadoqlash va tamg‘alash bo‘yicha axborot, muvofiqlik sertifikati, shartli belgilar va atamalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

4.6. TIXning tavsifiga aniq tovar belgisi yoki nomi, patent, konstruksiya, model, kelib chiqish manbasi yoki ishlab chiqaruvchiga doir talablarni, eksklyuziv huquqni nazarda tutuvchi havolalarni kiritish taqiqlanadi.

4.7. TIX tavsifida quyidagilar bo‘lishi shart:

- tovarlarning soni;
- bajarilishi yoki ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan ishlar yoki xizmatlarning turi va hajmi;
- tovarlarning yetkazib berilish joyi yoki ishlar bajarilishi, xizmatlar ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan manzil;
- tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlarni ko‘rsatishning maqbul yoki talab etiladigan muddatlari;
- zarur bo‘lganda TIXning kafolat muddati va (yoki) sifat bo‘yicha kafolat hajmi, kafolat xizmati ko‘rsatish talablari, tovardan foydalanish xarajatlari, montaj va sozlash shartlari, foydalanuvchilarni o‘qitish talablari.

4.8. Milliy tasniflagichga (https://tasniflagich.mf.uz/) muvofiq, bir XBda turli tasnif kodlariga mansub TIXlarning birgalikda xaridiga buyurtma berish taqiqlanadi.

4.9. TIXning xususiyatlaridan kelib chiqib, buyurtma beruvchi tarkibiy bo‘linma tomonidan ishlab chiqilgan texnik topshiriq XBga ilova qilinishi mumkin.

4.10. Vakolatli bo‘linma kelib tushgan XBni EDO orqali olganidan so‘ng 3 ish kuni ichida uni ko‘rib chiqadi, ma’lumotlar to‘liqligi va tavsiflarning to‘g‘riligini baholaydi hamda zarur hollarda XBni to‘ldirish yoki qayta ishlash uchun EDO orqali tarkibiy bo‘linmaga qaytarishi mumkin.

4.11. XBning shakli:

TASDIQLAYMAN
“Uzautocomponents” MCHJ
Boshqaruv direktori

_____
«___» _____202_

Xarid qilish uchun buyurtma

Boshqarma	

Nomi	**Tovar - Model - Xizmat**	**Texnik Xususiyatlar (kelishilgan TT ni ilova qiling)**	**O‘lchov birl.**	**Soni**	**Xarid qilish uchun asos**	**Zaruriy Yetkazib berish sanasi**	**Reja-jadval bo‘yicha narxi**	**Reja-jadval bo‘yicha tartib raqami**

5. Boshlang‘ich narxni belgilash

5.1. Vakolatli bo‘linma tasdiqlangan XBga muvofiq TIX xaridi boshlang‘ich narxini 1-ilovaga muvofiq amalga oshiradi.

6. Xarid turini belgilash

6.1. Vakolatli bo‘linma TIX xususiyatlari va boshlang‘ich narxidan kelib chiqib quyidagi xarid turlaridan birini mustaqil tanlaydi:

6.2. **Elektron kooperatsiya portali:**

- xarid qilinishi nazarda tutilgan TIXni birinchi navbatda new.cooperation.uz portalida ro‘yxatdan o‘tgan mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish imkoniyatini majburiy tartibda o‘rganadi. Bunda, davlat xaridlari uchun zarur bo‘lgan tovarlar new.cooperation.uz portalida mavjud bo‘lmagan taqdirdagina portal ma’lumotnomasi asosida ularni boshqa elektron portallardan xaridi amalga oshiriladi;
- agar new.cooperation.uz portalida ro‘yxatdan o‘tgan mahalliy ishlab chiqaruvchilarning elektrotexnika mahsulotlari narxi boshqa elektron portallarda ro‘yxatdan o‘tgan mahalliy ishlab chiqaruvchilarning elektrotexnika mahsulotlari narxidan yuqori bo‘lsa, davlat buyurtmachilariga boshqa elektron portallarda ro‘yxatdan o‘tgan mahalliy ishlab chiqaruvchilardan elektrotexnika mahsulotlarini xaridi amalga oshiriladi;

6.3. **Elektron do‘kon:**

- bir shartnoma bo‘yicha BHMning yigirma besh ming baravarigacha qiymatdagi tovarlarning;
- bir shartnoma bo‘yicha BHMning yuz baravarigacha qiymatdagi ishlarning, xizmatlarning.

6.3.1. Ayni bir turdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida BHMning bir ming baravarigacha amalga oshirilishi mumkin.

6.4. **Kichik qiymatli xarid**:

Summasi bir shartnoma bo‘yicha BHMning ellik baravari miqdoridan oshmaydigan TIX xaridlari xarid komissiyasining ishtirokisiz o‘tkazilishi mumkin, biroq bir moliya yilida BHMning bir ming baravari miqdoridan oshmasligi kerak.

6.4.1. Bunda, g‘olib davlat xaridlari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon joylashtirilmagan holda, ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo‘li bilan yoki TIXning kamida uchta potensial yetkazib beruvchilaridan narxlarni so‘rash yo‘li bilan vakolatli bo‘linma tomonidan aniqlanadi.

6.4.2. Vakolatli bo‘linma kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomilini amalga oshirish asoslarini, shuningdek, tuzilgan shartnomalar va ularga doir qo‘shimcha kelishuvlar to‘g‘risidagi axborotni ular tuzilgan kundan e’tiboran besh ish kunidan kechiktirmay maxsus axborot portaliga joylashtiradi.

6.5. **Auksion:**

Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion vositasidagi xarid quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- tovarning standart xususiyatlarga ega bo‘lishi;

- tovarning texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini baholash hamda taqqoslash zarurati mavjud emasligi;
- tovarning qiymati bir shartnoma bo‘yicha BHMning yigirma besh ming baravarigacha bo‘lgan miqdorini tashkil etishi kerak.

6.5.1. Xizmatlar va ishlarning xaridi auksion obyekti bo‘la olmaydi.

6.6. **Eng yaxshi takliflarni tanlash** (bundan buyon matnda tanlash deb yuritiladi):

Tanlash vositasidagi TIX xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- g‘olibni aniqlash mezonlari TIX xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo‘ladi;
- TIX qiymati bir shartnoma bo‘yicha BHMning yigirma besh ming baravarigacha bo‘lgan miqdorni tashkil etadi.

6.7. **Tender:**

Tender vositasidagi TIX xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- g‘olibni aniqlash mezonlari TIXning nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o‘z ichiga oladi;
- TIXnig qiymati bir shartnoma BHMning yigirma besh ming baravaridan ortiq miqdorni tashkil etadi.

6.8. **Ikki bosqichli xarid:**

Ikki bosqichli TIX xaridlari quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- g‘olibni aniqlash mezonlari TIXning nafaqat pul bilan baholanishini, balki texnik, ekspluatatsiya qilish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lmagan texnik jihatdan murakkab TIXning miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o‘z ichiga oladi;
- TIXning qiymati bir shartnoma bo‘yicha BHMning yigirma besh ming baravaridan ortiq miqdorni tashkil etadi.

6.9. **To‘g‘ridan-to‘g‘ri:**

To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha TIX xaridlari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

- Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan TIX xaridi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan TIX xaridi;
- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan TIX xaridi;
- va boshqa Qonun(lar) va boshqa O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy aktlarida ruxsat etilgan hollarda.

6.10. **Hadli kelishuv:**

Hadli kelishuv vositasidagi TIX xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- g‘olibni aniqlash mezonlari TIXning nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o‘z ichiga oladi;
- TIXning qiymati bir hadli kelishuv bo‘yicha BHMning yigirma besh ming baravaridan ortiq miqdorni tashkil etadi;
- muayyan (ko‘pi bilan uch yilgacha) muddat davomida Jamiyat faoliyatida joriy ishlab chiqarish jarayonlarida foydalaniladigan TIXning xarid qilish uzluksizligini ta’minlash zarurati yuzaga kelishi.

6.10.1. Vakolatli bo‘linma EDO tizimi orqali xarid uchun buyurtma imzolangan kundan boshlab ikki ish kuni ichida xarid turini belgilashi kerak. Jamiyatda davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmi 2-ilovaga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Texnik topshiriq

7.1. Jamiyatning tarkibiy tuzilmaviy bo‘linmalari xarid qilinishi rejalashtirilgan TIXning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik topshiriqni (TT) mazkur Nizomda tasdiqlangan shaklga muvofiq ishlab chiqadi. Ishlab chiqilgan TT Jamiyatning Boshqaruvi raisining o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

7.2. Texnik topshiriq Vakolatli bo‘linma va Komplaens xizmati tomonidan mazkur Nizom talablari, texnik to‘g‘rilik, aniqlik va amaldagi qonunchilikka muvofiqlik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi.

7.3. Tovarlar xaridi bo‘yicha TT quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- tovarlarning tavsifi (funksional tavsiflar va iste’mol xususiyatlari); - tovarni sotib olishdan ko‘zlangan maqsadlar;
- xarid amalga oshirilayotgan loyiha uchun asoslar;
- tovarlarni sug‘urtalash;
- tovarlarning zarur texnik tavsifi;
- tovarlarning hajmi, qadoqlash, yuklashga qo‘yiladigan talablar;
- agar tavsifida boshqacha nazarda tutilmagan bo‘lsa, tovarning yangi, avval ishlatilmagan, foydalanilmagan bo‘lishi to‘g‘risidagi ko‘rsatma;
- komplektlashga qo‘yiladigan talablar;
- tovarga xizmat ko‘rsatish va uni ekspluatatsiya qilishga qo‘yiladigan talablar;
- tovarni ekspluatatsiya qilish xarajatlariga qo‘yiladigan talablar;
- tovarning texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiqligi bo‘yicha talablar;
- yetkazib berish miqdori, davriyligi, muddati va joyi bo‘yicha talablar;
- montajni amalga oshirish (agar montaj yetkazib beruvchi tomonidan bajarilsa) bo‘yicha talablar;
- xodimlarni o‘qitish bo‘yicha talablar;

- tovar bilan birga beriladigan hujjatlar va sarf materiallarining zarur miqdori;
- kafolat va kafolatdan keyingi xizmat ko‘rsatish bo‘yicha talablar (muddati, joyi);
- tovarning yaroqlilik muddati qoldig‘i, saqlash muddati, sifat kafolatlariga qo‘yiladigan talablar;
- tovarning ishlab chiqarish/yuklash muddatiga qo‘yiladigan talablar.

7.4. Ishlar va xizmatlarning xaridi bo‘yicha TT quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni aks ettirgan holda, bajariladigan ishlar va ko‘rsatiladigan xizmatlarning nomlanishi va foydalanish maqsadlari;

- xarid amalga oshirilayotgan loyiha uchun asoslar;

- buyurtmachining haqiqiy ehtiyojlarini inobatga olgan va amaldagi normativ hujjatlardan kelib chiqib asoslantirgan holda ijrochidan talab qilinadigan ishlar, xizmatlar ro‘yxati va ularning hajmi (miqdori);

- aniq manzilni (manzillar) ko‘rsatgan holda ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish joyi;

- ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish shartlari;

- davlat buyurtmachisi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, ishtirokchiga bajariladigan ishlar va ko‘rsatiladigan xizmatlarning murakkabligidan kelib chiqqan holda qo‘yiladigan talablar;

- ishlar va xizmatlar ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan davr (davrlar) yoki ishlar yakunlanishi va xizmatlar ko‘rsatilishi shart bo‘lgan aniq sanani yoxud ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatishning Jamiyat uchun maqbul eng qisqa muddati yoki shartnoma tuzilgandan (avans to‘langan, boshqa holat) keyingi ijrochi ishga kirishishi va xizmatlar ko‘rsatishni boshlashi lozim bo‘lgan muddatni ko‘rsatgan holda ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish muddatlari (davrlari);

- ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatishga, ularning natijalariga qo‘yiladigan talablar. Agar ijrochidan shartnomani bajarish jarayonida uchinchi shaxslar oldida javobgarlikni sug‘urtalash talab etiladigan yoki ko‘rsatiladigan xizmatlar insonlar sog‘lig‘i va hayotiga xavf tug‘dirishi ehtimoli mavjud bo‘lgan taqdirda xizmatlar ko‘rsatishning xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha talablar ko‘rsatilishi lozim;

- ishlar va xizmatlar natijalarini topshirish va qabul qilish tartibi. Ishlar va xizmatlarni bajarishning har bir bosqichi bo‘yicha va umumiy natijalarini topshirish va qabul qilishni ta’minlash bo‘yicha tadbirlar, har bir bosqich va umumiy davr bo‘yicha rasmiylashtirilishi va topshirilishi lozim bo‘lgan hisobot, texnik va boshqa hujjatlar (sinovlar, nazorat ostida ishga tushirish, ishlar va xizmatlarni topshirishda texnik nazorat dalolatnomalari, boshqa hujjatlarni imzolash talablari)ning mazmuni ko‘rsatib o‘tiladi;

- Jamiyatning xodimlarini bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar yuzasidan ijrochi tomonidan texnik o‘qitish bo‘yicha talablar;

- ishlar va xizmatlarning sifati kafolatlari hajmi (ijrochining kafolat muddati

davridagi Jamiyat uchun talab etiladigan eng maqbul yoki aniq belgilangan majburiyatlari) bo‘yicha talablar;

- ishlar va xizmatlar natijalarida sifat kafolatlarini ko‘rsatish to‘g‘risidagi talablar;
- ijrochi tomonidan ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha majburiyatlarni bajarish asosida yuzaga kelgan intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni Jamiyatga topshirish shartlarini ko‘rsatgan holda mualliflik huquqlari;
- Jamiyatning ixtiyoriga ko‘ra ishlar, xizmatlar va ularni ko‘rsatish shartlariga qo‘yiladigan boshqa talablar.

7.5. TIX xaridi yuzasidan TT qo‘yilgan talablar TIXning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab TTga kiritiladi.

8. Elektron do‘kon vositasida xaridlarni amalga oshirish

8.1. Vakolatli bo‘linma MAPning elektron do‘kon bo‘limida mavjud ofertalarni o‘rganadi va belgilangan boshlang‘ich narxdan baland bo‘lmagan va ijro uchun kelib tushgan XBda keltirilgan TIXning texnik parametrlariga mos keladigan ofertaga, xarid turi belgilangan sanadan boshlab 5 ish kuni ichida, narx so‘rovini yuboradi.

8.2. Vakolatli bo‘linma tomonidan tanlangan ofertada bayon etilgan shartlarga muvofiq hamda ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan eng past narxda shartnomani MAPda 48 soat ichida avtomatik ravishda shakllantiradi.

8.3. Agar xarid qilish tartib-taomilining yakuniga ko‘ra faqat tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchigina ishtirok etgan bo‘lsa, vakolatli bo‘linma va ishtirokchi o‘rtasida elektron shaklda savdolashish imkonini yaratadi va savdolar yakuniga ko‘ra shartnomani shakllantiradi yoki xarid qilish tartib-taomilini o‘tkazilmagan deb topadi.

8.4. Vakolatli bo‘linma tuzilgan shartnomani shartnoma shakllantirilgan kundan boshlab ikki ish kuni ichida shartnomani tasdiqlash varaqasini EDOga kiritadi.

9. Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion vositasida xaridlarini amalga oshirish

9.1. Vakolatli bo‘linma, xarid turi belgilangan sanadan boshlab ikki ish kuni ichida, MAPning boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion bo‘limida reja-jadval va XBga muvofiq e’lon joylashtiradi;

9.2. MAP auksion yakuniga ko‘ra berilgan takliflar orasida eng past narxni taklif qilgan ishtirokchini auksion g‘olibi sifatida saralab oladi hamda u va Jamiyat o‘rtasidagi shartnomani avtomatik ravishda shakllantiradi.

9.3. Agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo‘lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo‘lsa, auksionni o‘tkazilmagan deb hisoblanadi.

9.4. Vakolatli bo‘linma tuzilgan shartnomani shartnoma shakllantirilgan kundan boshlab ikki ish kuni ichida shartnomani tasdiqlash varaqasini EDOga kiritadi.

10. Eng yaxshi takliflarni tanlash vositasida xaridlarini amalga oshirish

10.1. Vakolatli bo‘linma tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjati loyihasi matnini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun elektron shaklda xarid turi belgilangan so‘ng o‘n ish kuni ichida kiritadi;

10.2. Xarid komissiyasi besh ish kuni ichida tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi.

10.3. Vakolatli bo‘linma xarid hujjatlari tasdiqlangan kundan boshlab ikki ish kuni ichida tasdiqlangan tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari, texnik topshiriq, shuningdek, tanlash o‘tkazish haqidagi e’lonni davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiradi.

10.4. Takliflarni qabul qilish muddati tugagandan so‘ng xarid komissiyasi kotibi uch ish kuni ichida ishtirokchilarning tanlash taklifida ko‘rsatilgan ma’lumotlarini xarid hujjatlari talablariga muvofiqligini tekshiradi va ishtirokchilar hujjatlarini xarid komissiyasiga tanishish uchun va buyurtmachiga texnik baholash uchun EDO orqali yuboradi.

10.5. Buyurtmachi uch ish kuni uchida tanlash ishtirokchilari takliflarini texnik topshiriq talablariga muvofiqligini hamda xarid hujjatlarida tasdiqlangan mezonlarga muvofiq texnik baholaydi va ko‘rib chiqish uchun Jamiyatning komplayens xizmatiga taqdim etadi.

10.6. Komplayens xizmati uch ish kuni ichida tanlash bo‘yicha ishtirokchilar takliflarining texnik baholashni amaldagi qonunchilik hamda tasdiqlangan mezonlarga muvofiq to‘g‘ri baholanganligi yuzasidan o‘z xulosasini beradi.

10.7. Komplayens xizmati texnik baholash jarayonida kamchiliklar mavjudligini aniqlasa va/yoki asosli e’tirozlar bildirsa, buyurtmachi texnik baholashni bir ish kuni ichida qayta ko‘rib chiqadi.

10.8. Komplayens xizmati bilan kelishilgan texnik baholashni vakolatli bo‘linmaga taqdim qilingan kundan boshlab 1 ish kuni ichida vakolatli bo‘linma MAPga xarid komissiyasi tasdiqlashi uchun kiritadi.

10.9. Xarid komissiyasining har bir a’zosi uch ish kuni ichida o‘zining MAPdagi shaxsiy kabineti orqali ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Belgilangan muddatlarda xarid komissiyasi a’zosi shaxsiy kabineti orqali ovoz berishdan bo‘yin tovlagan taqdirda, u ovoz berishdan bosh tortgan deb tan olinadi. Xarid komissiyasi raisi yoki uning vazifasini bajaruvchi ovoz berishdan bosh tortishga haqli emas.

10.10. Tanlash takliflarini ko‘rib chiqish hamda baholash natijalarini avtomatik ravishda shakllanadigan dastlabki elektron bayonnomada qayd etadi va rasmiylashtirilgan kundan e’tiboran ikki ish kunida muhokama uchun joylashtiradi.

10.11. Xarid komissiyasi takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran o‘n ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda:

10.12. Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha e’tirozlar tushmagan bo‘lsa, bu to‘g‘risida tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtiradi.

10.13. Tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha tanlash ishtirokchilaridan e’tirozlar tushganda ushbu e’tirozlarni ko‘rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

10.14. Vakolatli bo‘linma tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtirilgan kundan e’tiboran ikki ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda Jamiyat va g‘olib deb topilgan ishtirokchi o‘rtasidagi shartnomani tasdiqlash varaqasini EDOga kiritadi.

10.15. Vakolatli bo‘linma shartnoma imzolangan kundan e’tiboran uch ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlarni MAPning tegishli bo‘limiga joylashtiradi.

11. Tender vositasida xaridlarini amalga oshirish

11.1. Vakolatli bo‘linma tender bo‘yicha xarid hujjatlari loyihasini xarid turi belgilangan kundan boshlab besh ish kuni ichida ishlab chiqadi va Xarid komissiyasiga kelishish uchun EDO orqali kiritadi.

11.2. Xarid komissiyasi tender bo‘yicha xarid hujjatlarini besh ish kuni ichida qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi.

11.3. Vakolatli bo‘linma xarid hujjatlari tasdiqlangan kundan boshlab ikki ish kuni ichida tasdiqlangan tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari ushbu nizomda o‘rnatilgan tartibda ekspertizadan o‘tkazish uchun kiritadi. Texnik topshiriq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Loyihaoldi va xarid hujjatlarini kompleks ekspertiza qilish tizimining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 13-martdagi PQ-104-son qarori 5-bandiga muvofiq loyihaoldi hujjatlarni ishlab chiqish uchun texnik topshiriqlar loyihalarini hamda qiymati 15 million AQSH dollari ekvivalentidan kam bo‘lganlari ekspertizadan o‘tkazilmaydi.

11.4. Ijobiy ekspertiza xulosasi olingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida Vakolatli bo‘linma tasdiqlangan xarid hujjatlari, texnik topshiriq hamda tender o‘tkazish haqidagi e’lonni davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtiradi.

11.5. Takliflarni qabul qilish muddati tugagach, Xarid komissiyasi kotibi uch ish kuni ichida ishtirokchilarning yuklangan fayllardagi ma’lumotlarini ularning tender takliflarida ko‘rsatilgan ma’lumotlar bilan taqqoslab tekshiradi va hujjatlarni Xarid komissiyasiga hamda buyurtmachiga texnik baholash uchun EDO orqali yuboradi.

11.6. Buyurtmachi uch ish kuni ichida tender ishtirokchilari takliflarini texnik topshiriq talablari va tasdiqlangan mezonlarga muvofiq baholaydi hamda Komplayens xizmatiga ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi.

11.7. Komplayens xizmati uch ish kuni ichida tender bo‘yicha ishtirokchilar takliflarining texnik baholashni amaldagi qonunchilik hamda tasdiqlangan mezonlarga muvofiq to‘g‘ri baholanganligi yuzasidan o‘z xulosasini beradi.

11.8. Komplayens xizmati texnik baholash yuzasidan kamchiliklar aniqlasa yoki asosli e’tiroz bildirsa, buyurtmachi texnik baholashni bir ish kuni ichida qayta ko‘rib chiqadi.

11.9. Komplayens xulosasi kelishilganidan so‘ng, buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan texnik baholash bir ish kuni ichida Vakolatli bo‘linmaga yuboriladi va

Vakolatli bo‘linma uni MAP orqali Xarid komissiyasi tasdiqlashi uchun kiritadi.

11.10. Tanlash takliflarini ko‘rib chiqish hamda baholash natijalarini avtomatik ravishda shakllanadigan dastlabki elektron bayonnomada qayd etadi va rasmiylashtirilgan kundan e’tiboran ikki ish kunida muhokama uchun joylashtiradi.

11.11. Xarid komissiyasi takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran o‘n ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda ishtirokchilarning takliflarini ko‘rib chiqishi, baholashi va g‘olibni aniqlashi shart. Ushbu muddat tanlash o‘tkazish bo‘yicha xarid hujjatlarida ko‘rsatilgan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

11.12. Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha e’tirozlar tushmagan bo‘lsa, bu to‘g‘risida tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtiradi.

11.13. Tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha tanlash ishtirokchilaridan e’tirozlar tushganda ushbu e’tirozlarni ko‘rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

11.14. Vakolatli bo‘linma tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtirilgan kundan e’tiboran ikki ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda Jamiyat va g‘olib deb topilgan ishtirokchi o‘rtasidagi shartnomani tasdiqlash varaqasini EDOga kiritadi.

11.15. Vakolatli bo‘linma shartnoma imzolangan kundan e’tiboran uch ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlarni MAPning tegishli bo‘limiga joylashtiradi.

12. Ikki bosqichli TIXning xaridlari

12.1. Vakolatli bo‘linma ikki bosqichli xarid bo‘yicha xarid hujjatlari loyihasini xarid turi belgilangan kundan boshlab besh ish kuni ichida ishlab chiqadi va EDO orqali Xarid komissiyasiga kelishish uchun taqdim etadi.

12.2. Xarid komissiyasi ikki bosqichli xarid bo‘yicha xarid hujjatlarini besh ish kuni ichida qonunchilik va mezonlarga muvofiqligi yuzasidan ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi.

12.3. Vakolatli bo‘linma xarid hujjatlari tasdiqlangan kundan boshlab ikki ish kuni ichida tasdiqlangan ikki bosqichli TIXning xaridlari bo‘yicha xarid qilish hujjatlari, texnik topshiriqni ushbu nizomda o‘rnatilgan tartibda ekspertizadan o‘tkazish uchun kiritadi.

12.4. Ijobiy ekspertiza xulosasi olinganidan so‘ng ikki ish kuni ichida Vakolatli bo‘linma tasdiqlangan xarid hujjatlari, texnik topshiriq va ikki bosqichli xarid o‘tkazish haqidagi e’lonni MAPga joylashtiradi.

12.5. Birinchi bosqichda ishtirokchilar TIXning minimal texnik xususiyatlari va funksional talablari asosida dastlabki texnik takliflarini taqdim etadi.

12.6. Takliflarni qabul qilish muddati tugagandan so‘ng Xarid komissiyasi birinchi bosqich takliflarini ko‘rib chiqadi va xarid hujjatlarida belgilangan texnik parametrlar bo‘yicha eng maqbul texnik yechimni taklif etgan ishtirokchilarni keyingi bosqichga o‘tkazadi. Ikkinchi bosqichga birinchi bosqichdan o‘tgan kamida ikki nafar ishtirokchining takliflari mavjud bo‘lganda o‘tkaziladi.

12.7. Ikkinchi bosqich faqat birinchi bosqichdan kamida ikki nafar ishtirokchi o‘tgan taqdirda o‘tkaziladi.

12.8. Ikkinchi bosqichga tayyorgarlik jarayonida buyurtmachi birinchi bosqich natijalaridan kelib chiqib texnik talablarni aniqlashtirishi yoki takomillashtirishi mumkin, biroq xarid predmetini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Vakolatli bo‘linma tomonidan Ikki bosqichli TIXning xaridlarining ikkinchi bosqichida o‘zgartirish kiritilgan xarid qilish hujjatlari birinchi bosqichdan muvaffaqiyatli o‘tgan ishtirokchilarga yigirma ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatda yuboriladi va ularga o‘z uzil-kesil takliflarini taqdim etish orqali xaridda ishtirok etish taklif qilinadi.

12.9. Takliflar turli darajadagi texnik afzalliklardan, iqtisodiy barqarorlik jihatlaridan, shu jumladan hayotiy davrning qiymatidan kelib chiqqan holda baholanadi. Yakuniy baholash xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatilgan tartibda xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

12.10. Ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash muddati har bir bosqich bo‘yicha takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran yigirma ish kunidan oshishi mumkin emas.

12.11. Takliflarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ikki bosqichli TIXning xaridlari, agar ikkinchi bosqichda xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo‘lsa, o‘tkazilmagan deb hisoblanadi.

12.12. Vakolatli bo‘linma tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtirilgan kundan e’tiboran ikki ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda Jamiyat va g‘olib deb topilgan ishtirokchi o‘rtasidagi shartnomani tasdiqlash varaqasini EDOga kiritadi.

12.13. Vakolatli bo‘linma shartnoma imzolangan kundan e’tiboran uch ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlarni MAPning tegishli bo‘limiga joylashtiradi.

13. Hadli kelishuv vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish

13.1. Vakolatli bo‘linma xarid turi belgilangan kundan boshlab besh ish kuni ichida hadli kelishuv bo‘yicha xarid qilish hujjatlari loyihasini ishlab chiqadi va ularni kelishish uchun EDO orqali Xarid komissiyasiga kiritadi.

13.2. Xarid komissiyasi hadli kelishuv bo‘yicha xarid hujjatlarini besh ish kuni ichida qonunchilikka va belgilangan mezonlarga muvofiqligi yuzasidan ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi.

13.3. Xarid hujjatlari tasdiqlanganidan so‘ng Vakolatli bo‘linma ikki ish kuni ichida tasdiqlangan xarid hujjatlari, texnik topshiriq hamda hadli kelishuv asosida xarid o‘tkazish haqidagi e’lonni MAPga joylashtiradi.

13.4. Takliflarni qabul qilish yakunlangandan so‘ng Xarid komissiyasi qirq besh ish kunidan oshmagan muddatda:

13.4.1. biriktirilgan hujjatlar ma’lumotlarining ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan taklifga muvofiqligini tekshiradi;

13.4.2. taklifning xarid hujjatlariga muvofiqligi (yoki nomuvofiqligi) bo‘yicha asoslantirilgan xulosa kiritiladi.

13.5. Xarid komissiyasi qirq besh ish kunidan oshmagan muddatda miqdor ko‘rsatkichlariga ega bo‘lmagan takliflarning texnik (ekspert) mezonlari asosida

baholashni amalga oshiradi, MAPda avtomatik shakllantirilgan birinchi bosqich elektron bayonnomasini imzolaydi.

13.6. Vakolatli bo‘linma g‘olib aniqlangan paytdan boshlab o‘n ish kunidan kechiktirmay xarid hujjatlarida belgilangan talablarni qanoatlantirgan kamida uch nafar ishtirokchi bilan hadli kelishuvni tasdiqlash varaqasi bilan EDOga kiritadi.

13.7. Hadli kelishuvning ikkinchi bosqichida shartnoma tuzish uchun birinchi bosqichdan o‘tgan hamda hadli kelishuv imzolagan ishtirokchilarga MAP orqali narx so‘rovi yuboriladi.

13.8. Narx so‘rovi natijalari va yakuniy baholash bo‘yicha aniqlangan g‘olib bilan hadli kelishuvning umumiy summasi va amal qilish muddati doirasida shartnoma tasdiqlash varaqasi Vakolatli bo‘linma tomonidan EDOga kiritiladi.

13.9. Vakolatli bo‘linma shartnoma imzolangan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlarni MAPning tegishli bo‘limiga joylashtiradi.

14. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan xaridlari

To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

1) Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

3) favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

4) sud muhokamalarida ishtirok etish uchun advokatni (vakilni) tayinlash bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xaridi;

5) boshqa yetkazib beruvchi tomonidan mahsulot yetkazib berish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, litsenziya bitimiga (shartnomasiga, kontraktiga) asosan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) intellektual faoliyat natijalari muallifidan yoki intellektual faoliyat natijalaridan mutlaq foydalanish huquqiga ega bo‘lgan yetkazib beruvchidan, shuningdek fan, adabiyot va san’at asarlari, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko‘rsatuvlari yoki eshittirishlari kabi intellektual faoliyat natijalarining ushbu intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo‘lgan yagona shaxsdan davlat xaridi;

6) narxi (tarifi) davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

7) davlat buyurtmachisi faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmat safarlari va boshqa hollar uchun chiptalarning davlat xaridi (avia, temir yo‘l

va yo‘nalishli transportiga), shuningdek yashash xarajatlari;

8) boshqa yetkazib beruvchi tomonidan xizmat ko‘rsatish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, yetkazib beruvchi tomonidan avval olib kelingan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) kafolat muddati tugaganidan keyin va joriy xizmat ko‘rsatish (ehtiyot qismlarni xarid qilish), shuningdek avval xarid qilingan dasturiy mahsulotni kuzatish va (yoki) uni funksiyaviy jihatdan kengaytirish;

9) giyohvandlik vositalarini va psixotrop moddalarni saqlash hamda olib kirish (olib chiqish);

10) favqulodda hollarda tabiat hodisalari, epidemiyalar va kasalliklar tarqalishining oldini olish yoki uning oqibatlarini bartaraf etish uchun zarur tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanadigan davlat xaridi;

11) tabiiy ofatlarning va texnogen halokatlarning oqibatlarini tezkor bartaraf etish, shuningdek davlat buyurtmachisining to‘laqonli faoliyat olib borishiga ta’sir ko‘rsatadigan tarzda kommunikatsiyalar, mexanizmlar, jihozlar va boshqa asbob-uskunalar ishdan chiqqan hollarda avariyalarni bartaraf etish uchun tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

12) O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining, vazirliklar, idoralar, davlat korxonalari va muassasalarining sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish muassasalariga, bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlariga yo‘llanmalarning, shuningdek madaniy-ommaviy tadbirlarga chiptalarning davlat xaridi;

13) O‘zbekiston Respublikasining ishlab chiqaruvchilaridan yoki ularning rasmiy dilerlaridan va distribyutorlaridan xarid qilinadigan yangi avtotransport vositalarining, maxsus va qishloq xo‘jaligi texnikasining davlat xaridi;

14) qo‘shimcha ishlarni va xizmatlarni amalga oshirish uchun shartnoma umumiy boshlang‘ich summasining 10 foizidan oshmaydigan miqdordagi xarajatlar, bundan ushbu Qonun 34-moddasining o‘n birinchi qismida nazarda tutilgan hol mustasno;

15) aviatsiya korxonalari tomonidan ishlab chiqaruvchilardan yoki sertifikatlashtirilgan yetkazib beruvchilardan import shartnomalari bo‘yicha xarid qilinadigan aviatsiya texnika jihozlari, shu jumladan havo kemalari, aviadvigatellar va ularning butlovchi qismlari, aviatsiya uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarning davlat xaridi;

16) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, chet davlatlar va hukumatlar rahbarlarining, shuningdek parlament a’zolarining va xalqaro tashkilotlar rasmiy delegatsiyalarining tashriflari munosabati bilan yashash, ovqatlanish, madaniy tadbirlarni tashkil etish hamda o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar, transport xarajatlari, suvenirlar, sovg‘alar xaridi va boshqa tashkiliy masalalar uchun nazarda tutilgan xarajatlar;

17) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasidan ajratiladigan mablag‘lar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining chet el delegatsiyalarini qabul qilish va xorijiy mamlakatlarga

delegatsiyalarni yuborish bo‘yicha rejalashtirilgan mablag‘lar hisobidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

18) quyidagilar uchun oziq-ovqat mahsulotlarining davlat xaridi:

davolash-profilaktika va ta’lim muassasalari;

mehmonxona va restoran xizmatlari ko‘rsatish;

muruvvat va nogironligi bo‘lgan shaxslar uylari;

mehribonlik uylari va internatlar;

qariyalar uylari;

19) fuqarolarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va davolash, shu jumladan jarrohlik amaliyoti va reabilitatsiya yordami bilan bog‘liq xarajatlar;

20) mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish yuzasidan “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan ta’lim dasturlarini tashkil etish, respublikaga xorijiy olimlar va mutaxassislarni, shu jumladan vatandoshlarni jalb etish xizmatlari;

21) avval tuzilgan shartnomalardagi yetkazib beruvchilar bilan aloqa, Internet va teleradiouzatish xizmatlari bo‘yicha davlat xaridi.

Davlat buyurtmachilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzilganligi to‘g‘risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e’tiboran besh ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirishi shart.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzilganligi to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan bo‘lsa, ushbu shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilmaydi.

Davlat buyurtmachisi ushbu moddada nazarda tutilgan davlat xaridlarini amalga oshirish chog‘ida xarid qilish tartib-taomillarining boshqa raqobatli turlaridan ham ushbu Qonun talablariga muvofiq foydalanishi mumkin.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida amalga oshirishga ruxsat berilsa, shartnoma va shartnomaga oid qo‘shimcha kelishuvlar Kompleks ekspertiza qilish markazida kompleks ekspertizadan o‘tkazilishi lozim, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno.

15. “Taklif so‘rovi” orqali xarid qilish

15.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.09.2018-yildagi PQ-3953-son qarori 01.01.2026-yildan o‘z kuchini yo‘qotgan va ushbu qarordagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxatini ishlatish ta’qiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.12.2025-yildagi “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-son Farmoning 1-ilovasiga muvofiq, ushbu ro‘yxatdagi xarid qilinishi mumkin bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) “taklif so‘rovi” orqali amalga oshiriladi:

1) Bank (banklararo) xizmatlar va operatsiyalar, qurilish obyektlarida banklar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat o‘lchovi xizmatlari bundan mustasno.

2) Davlat buyurtmachisi tomonidan uning tarkibidagi yoki yuqori turuvchi tashkiloti ishlab chiqaradigan tovar (koʻrsatadigan xizmat, bajaradigan ish)larning ayni bir turi uchun amalga oshiriladigan davlat xaridi.

3) Sport, madaniy-ommaviy tadbirlar, koʻrgazmalar, yarmarkalar, anjumanlar, seminarlar va oʻquv mashgʻulotlarini tashkil etish hamda oʻtkazish uchun binolar, inshootlar va asbob-uskunalarni ijaraga olish.

4) Ommaviy axborot vositalarida matbuot anjumani, brifing, mavzuli telekoʻrsatuv va boshqa tadbirlarni oʻtkazish, reklama joylashtirish, maqola chop etish.

5) Turar yoki noturar joyni (inshootni) xarid qilish yoki ijaraga olish, shuningdek, uning ta'minoti boʻyicha ekspluatatsiya xarajatlari.

6) Davriy nashrlar (gazetalar, jurnallar)ga, shu jumladan, ularning elektron variantlariga obuna boʻlish.

7) Benzin, suyultirilgan va siqilgan gaz, dizel yonilgʻisi va koʻmir mahsulotlari hamda elektr energiyasi manbalarida harakatlanuvchi transport vositalarini quvvatlantiruvchi elektr energiyasi*.

8) Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari, Toshkent shahrining shahar budjeti, tuman va shaharlar budjetlari zaxira jamgʻarmalaridan ajratiladigan mablagʻlar hisobidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar).

9) Maxsus va xizmat avtotransporti vositalarini, havo kemalarini, shuningdek, tibbiyot uskunalarini ta'mirlash boʻyicha xizmatlar.

10) Xalqaro va davlatlararo darajadagi tadbirlarni tashkil etish va oʻtkazish bilan bogʻliq xarajatlar.

11) Fuqaro aviatsiyasi korxonalari tomonidan ishlab chiqaruvchilardan yoki sertifikatlashtirilgan yetkazib beruvchilardan havo kemalarini ekspluatatsiya qilish va ta'mirlash uchun xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va materiallar, shu jumladan, aviatsiya servis tovarlari, materiallar, inventarlar va ularning qismlari, maxsus gilam qoplamalari, havo kemalari oʻrindiqlariga qoplamalar tayyorlash uchun matolar, aviatsiya shinalari, shuningdek, aviatsiya korxonalarining chet eldagi vakolatxonalari uchun zarur boʻlgan tovarlarning (ishlar, xizmatlar) xaridi.

12) Ta'lim muassasalari uchun darsliklar va oʻquv-metodik jamlanmalarni nashr etish (qayta nashr etish) uchun moʻljallangan qogʻoz va boshqa sarflash materiallari.

13) Oʻzbekiston futbol assotsiatsiyasi huzuridagi futbol akademiyalari uchun elektron hisoblash uskunalari, oʻyinlar va oʻquv-mashq yigʻinlarini tahlil qilish dasturiy ta'minot va uskunalar, Xalqaro futbol assotsiatsiyalari federatsiyasi talablari boʻyicha futbol toʻplari, sport kiyimlari va ekipirovkalar hamda futbol uchun oyoq kiyimlar.

14) Xalqaro sport federatsiyalari (assotsiatsiyalari) tomonidan ularning talab va tavsiyalariga asosan xalqaro sport musobaqalari hamda professional sportchilar shugʻullanishi uchun zarur boʻladigan xorijda ishlab chiqarilgan sport anjomlari, jihozlari, uskunalari, maxsus mashgʻulot trenajyorlari, zamonaviy ilmiy texnologiya

vositalari, maxsus sport kiyimlari (ekipirovkalar), sport tibbiyoti jihozlari, tibbiy biologik va farmakologik preparatlar.

15) Xalqaro sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishgan ishtirokchilarni kutib olish bilan bog‘liq xaridlar (transport xizmatlarini ko‘rsatish, asbob-uskunalarni ijaraga olish, banket va ovqatlanishni tashkil etish bo‘yicha xizmatlar, suvenirlar, sovg‘alar, gullar hamda gul bilan bezatish, bannerlar va bukletlar tayyorlash, tadbirlar va anjumanlarni tashkil etish, maxsus va milliy kiyimlar va boshqalar).

16) O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish agentligi tizimidagi tashkilotlar va botanika bog‘lari hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan yetishtirilgan ko‘chat va nihollar, shuningdek, ularni parvarish qilish bo‘yicha xizmatlar.

17) O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan xorijiy kompaniyalarning prodyuserlik va reklama xizmatlari, xorijiy teleradiokompaniyalar va boshqa ommaviy axborot vositalarining reklamalar, reportajlar va boshqa roliklarni tayyorlash va translyatsiya qilish bo‘yicha xizmatlari.

18) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Davlat rezidensiyalariga xizmat ko‘rsatish va tadbirlarni tashkil etish boshqarmasi tuzilmasiga kiradigan davlat rezidensiyalari hududlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish uchun Hukumat qarorlari va topshiriqlari asosida, shu jumladan, pudratchilar tomonidan, ushbu maqsadlarga ajratilgan mablag‘lar hisobiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish.

19) Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari loyihalarini bajarishda ishtirok etuvchi budjet tashkilotlari tomonidan tadqiqotlar o‘tkazish maqsadida reaktivlar va reagentlar xarid qilish.

20) Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy normativ hujjatlar, davlat standartlarini ishlab chiqish va qayta ishlash, shuningdek, shaharsozlik faoliyati sohasidagi xorijiy normativ hujjatlarni moslashtirish bo‘yicha xizmatlar.

21) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi muzeyi ekspozitsiyasi, muzey va kutubxona fondlarini shakllantirish maqsadida xorijda va O‘zbekistonda tayyorlanadigan eksponatlar, san’at asarlari, suratlar, haykallar va byustlar, gilamlar, matolar, qo‘lyozmalar va nashr asarlari nusxalari, xaritalar, pannolar, stendlar, video-audio va yuqori texnologik namoyishlar uchun materiallar xaridi.

22) Oliy ta’lim muassasalari tomonidan xorijiy davlatlardan o‘quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalarni (mualliflik huquqi bo‘lgan ishlab chiqaruvchilardan), sarflanadigan laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa obyektlar) xarid qilish.

23) Monopolist korxonalar va (yoki) ustav fondi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxs, ustav fondi (kapitali)ning 50 foizi va undan ortig‘i ustav fondi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan birja savdolarida sotilayotgan

mahsulotlarni xaridorlarga affillangan shaxs bo‘lgan tashish xizmatini ko‘rsatuvchi korxonalarning avtotransportda tashish xizmatlari.

24) O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridi.

25) Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan Davlat budjeti hamda Suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha suv xo‘jaligi obyektlarining loyiha hujjatlarini ishlab chiqish xizmatlari.

26) O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari.

27) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida “taklif so‘rovi” bo‘yicha amalga oshiriladigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi.

** Mazkur ilovada ko‘rsatilgan benzin, suyultirilgan va siqilgan gaz, dizel yonilg‘isi va ko‘mir mahsulotlari hamda elektr energiyasi manbalarida harakatlanuvchi transport vositalarini quvvatlantiruvchi elektr energiyasining xaridi, qonunchilikda belgilangan tartibda korporativ bank kartalari (xarid kartalari) orqali amalga oshirilishi mumkin.*

16. Xarid qilish hujjatlari

16.1. Xarid qilish hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining davlat xaridlari sohasidagi qonunchiligida belgilangan tartib-taomillar o‘tkazilishi talab etilgan hollarda ishlab chiqiladi.

16.2. Xarid qilish hujjatlari vakolatli bo‘linma tomonidan xarid turi belgilangan kundan boshlab o‘n ish kuni ichida ishlab chiqiladi.

16.3. Xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- xarid turi va xarid o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa ko‘rsatilgan axborot;
- ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta, to‘lov tartibi va yetkazib berish shartlari haqidagi axborot;
- ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va, zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to‘g‘risidagi talab;
- ishtirokchilarga xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;
- takliflarni baholash mezonlari va ko‘rib chiqish tartibi;
- tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.
- tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga ularning ajralmas qismi bo‘lgan shartnoma loyihasi.

16.4. Xarid qilish hujjatlari namunaviy shakllarini to‘ldirishda miqdoriy (o‘lchov birligini belgilagan holda) va miqdoriy bo‘lmagan (ekspert) mezonlar xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

17. Kompleks ekspertizadan o‘tkazish

17.1. Xarid turidan qat’iy nazar xarid hujjatlari va texnik topshiriqlar

amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ekspertizadan o‘tkaziladi.

17.2. Vakolatli bo‘linma xarid qilish hujjatlarini kompleks ekspertizadan o‘tkazish zarur hujjatlar to‘plamini tayyorlaydi va markazga ariza yuboradi.

17.3. Ko‘rsatiladigan ekspertiza xizmatlari uchun qonunchilikka muvofiq to‘lov besh ish kuni ichida amalga oshiriladi.

17.4. Agar Markaz tomonidan e’tirozlar mavjud bo‘lmasa hujjatlarining kompleks ekspertizasi yakunlariga ko‘ra ijobiy xulosasi rasmiylashtiriladi.

17.5. Agar Markaz tomonidan e’tirozlar mavjud bo‘lsa, vakolatli bo‘linma e’tirozlarni hisobga olgan holda xarid hujjatlarini qayta ishlab chiqib, uni takroran ko‘rib chiqish uchun 10 ish kunida yuboradi.

18. Shartnomani tasdiqlash

18.1. Vakolatli bo‘linma xarid turidan qat’i nazar, imzolanishi ko‘zda tutilgan barcha shartnomalarni tasdiqlash varaqasi bilan birgalikda EDO orqali quyidagi tuzilmalarga kelishish uchun yuboradi: buyurtmachi, xarid komissiyasi, ichki audit xizmati, komplayens xizmati va yuridik boshqarmasi. Shundan so‘ng, shartnoma shartnomani imzolash vakolatiga ega bo‘lgan shaxsga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

18.2. Shartnomani imzolash vakolatiga ega shaxs tomonidan tasdiqlangan shartnomani tasdiqlash varaqasi imzolash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

18.3. Shartnomani tasdiqlash varaqasi shakli:

SHARTNOMANI TASDIQLASH VARAQASI

Shartnoma raqami	
Buyurtma beruvchi	
Xarid uchun asos	
Xarid turi	
Shartnoma summasi	
Valyuta	
Yetkazib beruvchi	
Tovar (xizmat, ish) nomi	

19. Xarid qilish tartib-taomilini bekor qilish

19.1. Xarid komissiyasi quyidagi hollarda xarid qilish tartib-taomilini bekor qilish haqida qaror qabul qilishi mumkin:

- xarid zarurati yo‘qolgan taqdirda;
- xarid hujjatlarida yoki texnik topshiriqda jiddiy kamchiliklar aniqlangan taqdirda;
- xarid jarayonida raqobat muhitining shakllanmaganligi aniqlanganda;
- qonun buzilish holatlari aniqlanganda.

19.2. Xarid qilish tartib-taomili bekor qilinganda, bu haqda ishtirokchilarga MAP orqali xabarnoma yuboriladi va bu qaror asoslari ko‘rsatilgan holda elektron

bayonnomada rasmiylashtiriladi.

20. Yuqori likvidli tovarlarni birja savdolari orqali xarid qilish tartibi

20.1. Yuqori likvidli tovarlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq birja savdolari orqali xarid qilinadi.

20.2. Yuqori likvidli tovarlar faqat O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yurituvchi, fond birjalarida akkreditatsiyadan o‘tgan va elektron birja savdolarida qatnashish huquqiga ega bo‘lgan brokerlar orqali xarid qilinadi.

20.3. Vakolatli bo‘linma yuqori likvidli tovarlar bo‘yicha tasdiqlangan XB kelib tushganidan so‘ng besh ish kuni ichida, agar ilgari shartnoma tuzilmagan bo‘lsa, yuqori likvidli tovarlar bo‘yicha elektron birja savdolarida ishtirok etish huquqiga ega Broker bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzadi.

20.4. Vakolatli bo‘linma XB asosida uch ish kuni ichida Brokerga elektron birja savdolarida ishtirok etish bo‘yicha topshiriq yuboradi. Topshiriqda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

- tovar nomi;
- miqdori;
- o‘lchov birligi;
- maksimal narx;
- yetkazib berish manzili.

20.5. Agar birja savdolarida sotuvchilarning takliflari hajmi Vakolatli bo‘linmaning topshirig‘idagi miqdordan kam bo‘lsa, Broker mavjud hajmdagi mahsulotni xarid qiladi. Qolgan hajm keyingi savdo sessiyalarida xarid qilinadi.

20.6. Birja savdolari boshlang‘ich narxni oshirish shaklida o‘tkaziladi.

20.7. Vakolatli bo‘linma tanlangan Lot bo‘yicha uch ish kuni ichida EDO orqali Buxgalteriya hisobi va metodologiyasi bo‘limini birja savdosiga qo‘yilgan mahsulotning umumiy qiymatidan kelib chiqib, hisob raqamiga zarur miqdorda kafolat puli (depozit) ajratish zarurligi haqida xabardor qiladi. Har bir bitim bo‘yicha kafolat puli miqdori Birja tomonidan belgilanadi, qonunchilikda boshqacha tartib belgilangan holatlardan tashqari.

20.8. Vakolatli bo‘linma shartnoma tuzilgan kundan boshlab ikki ish kuni ichida, shartnomani tasdiqlash varaqasi EDO orqali tasdiqlash uchun kiritadi.

20.9. Vakolatli bo‘linma shartnoma imzolangan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlarni MAPning tegishli bo‘limiga joylashtiradi.

21. Javobgarlik

21.1. Mazkur Nizom talablariga rioya etilishini ta’minlash, xarid jarayonlarining shaffof, qonuniy va maqsadli tashkil etilishi uchun quyidagi shaxslar javobgar hisoblanadi:

21.2. **Buyurtmachi:**

- o‘z ehtiyojlari bo‘yicha TIXni asoslash, texnik topshiriqni to‘g‘ri va o‘z vaqtida taqdim etish;
- xarid uchun buyurtmani (XB) Nizom talablariga muvofiq shakllantirish;

- takliflarning texnik bahosini o‘tkazish va xulosa taqdim etish;
- tovarlar, ishlar va xizmatlarni qabul qilish jarayonini amalga oshirish, qabul qilish dalolatnomalarini rasmiylashtirish, sifat va texnik talablar bajarilganini tasdiqlash;
- qabul qilingan TIX bo‘yicha aniqlangan nomuvofiqliklar yuzasidan yetkazib beruvchiga o‘z vaqtida e’tiroz kiritish va vakolatli bo‘linmaga axborot taqdim etish.

21.3. **Vakolatli bo‘linma:**

- xarid jarayonining belgilangan tartibda va muddatlarda tashkil etilishi;
- xarid hujjatlarini ishlab chiqish, e’lonlarni joylashtirish, MAPdagi jarayonlarni yuritish;
- shartnomalarni tasdiqlash varaqasi orqali kelishuvdan o‘tkazish;
- shartnoma tuzilganidan so‘ng MAPga ma’lumotlarni joylashtirish;
- Asosiy vositalar xaridini amalga oshirishda komplayens nazoratining majburiy xulosasini olish.

21.4. **Xarid komissiyasi:**

- ishtirokchilarning takliflarini baholash mezonlariga muvofiq ko‘rib chiqish;
- qarorlarni mustaqil, xolis va asoslangan tarzda qabul qilish;
- elektron bayonnomalarni tasdiqlash.

21.5. **Komplayens xizmati:**

- jarayonning qonunchilik va ichki hujjatlarga muvofiqligini tekshirish;
- manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha nazoratni amalga oshirish;
- Asosiy vositalar xaridini amalga oshirishda xarid komissiyasiga xaridning qonuniyligi, reja-jadvalga muvofiqligi va boshlang‘ich narxning to‘g'riligi bo‘yicha 2 ish kuni ichida yozma xulosa taqdim etish;
- Asosiy vositalar xaridini amalga oshirishda xarid jarayonida korrupsiyaviy xavflar yoki qonunbuzilish holatlari aniqlangan taqdirda, PF-270-son Farmon bilan berilgan vakolatdan foydalangan holda, xarid jarayonini to'xtatish yoki kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha majburiy ko‘rsatmalar kiritish

21.6. **Ichki audit xizmati:**

- xarid jarayonlarining moliyaviy va tashkiliy jihatdan Nizomga muvofiqligini tekshirish.

21.7. **Yuridik boshqarma:**

- shartnoma loyihalariga huquqiy ekspertiza berish;
- shartnoma shartlarining qonunchilik talablariga mosligini ta’minlash.

21.8. **Boshqa bo‘linmalar:**

- o‘z vakolatlari doirasida xarid jarayonlarida ishtirok etadi.

21.9. Nizom talablarini buzish, xarid jarayoniga noqonuniy aralashuv, manfaatlar to‘qnashuvi, asossiz kechiktirish yoki noto‘g‘ri ma’lumot taqdim etish hollari yuzaga kelgan taqdirda aybdor shaxslar amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi.

22. Tovar, ish va xizmatlarni qabul qilish tartibi

22.1. Buyurtmachi yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan tovarlar,

bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarni qabul qilish jarayonini mazkur Nizom, shartnoma shartlari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshiradi.

22.2. Buyurtmachi qabul qilish jarayonida quyidagilarni tekshiradi:

- shartnomada ko‘rsatilgan miqdor, o‘lchov birligi va nomenklatura bo‘yicha mosligi;
- texnik topshiriqda belgilangan texnik, sifat va funksional talablarga muvofiqligi;
- mahsulotlar yoki xizmatlar uchun talab etiladigan sertifikatlar, pasportlar, kafolat hujjatlari va boshqa majburiy hujjatlarning mavjudligi;
- tashqi ko‘rinishdagi nuqsonlar yoki yetkazib berish shartlariga mos kelmaslik holatlari;
- bajarilgan ishlar yoki xizmatlar bo‘yicha tasdiqlovchi dalillar (foto, hisobot, sinov natijalari va boshqalar).

22.3. Qabul qilish natijalari bo‘yicha Buyurtmachi quyidagi hujjatlarni rasmiylashtiradi:

- tovarlar bo‘yicha — qabul qilish-topshirish dalolatnomasi;
- bajarilgan ishlar bo‘yicha — bajarilgan ishlar dalolatnomasi;
- xizmatlar bo‘yicha — ko‘rsatilgan xizmatlar dalolatnomasi;
- nomuvofiqlik aniqlangan hollarda — e’tiroz dalolatnomasi.

22.4. Agar qabul jarayonida tovarlar, ishlar yoki xizmatlar shartnoma talablari yoki texnik topshiriqqa mos kelmasa, Buyurtmachi yetkazib beruvchiga rasmiy e’tiroz kiritadi va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yoki mahsulotni almashtirishni talab qiladi. Kamchiliklar bartaraf etilmagunicha qabul qilish dalolatnomasi imzolanmaydi.

22.5. Qabul qilish jarayonining muddati:

- tovarlar yetkazib berilgan kundan boshlab — 3 ish kuni ichida;
- xizmatlar ko‘rsatilgan kundan boshlab — 3 ish kuni ichida;
- ishlar yakunlangandan so‘ng — 5 ish kuni ichida.

22.6. Kafolat muddati davomida aniqlangan yashirin nuqsonlar bo‘yicha Buyurtmachi yetkazib beruvchiga yozma ravishda murojaat qiladi, va yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan tartibda kamchiliklarni bartaraf etishi yoki tovarni almashtirishi shart.Buyurtmachining qabul qilish jarayonini asosli sabablar bo‘lmasdan kechiktirishi, hujjatlarni lozim darajada rasmiylashtirmasligi yoki e’tirozlarni o‘z vaqtida bildirmasligi oqibatida kelib chiqadigan zararlar uchun Buyurtmachi amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar hisoblanadi.

22.7. Qonunchilikka o‘zgartirish kiritilganda yoki yangi normativ-huquqiy hujjat qabul qilinganda ushbu Nizomning tegishli bandlari avtomatik ravishda yangi talablarga muvofiq qo‘llaniladi.

Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga 1-son ilova

“Uzautocomponents” AJning davlat xaridlarini amalga oshirishda boshlang‘ich narxni belgilashning
TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib “Uzautocomponents” MCHJ tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirishda tovar (ish, xizmat)ning boshlang‘ich narxini shakllantirish tartibini belgilaydi hamda tizim korxonalari uchun tavsiyaviy hisoblanadi.

Ushbu tartib talablari qonunchilikda belgilangan yagona yetkazib beruvchilar orqali amalga oshiriladigan davlat xaridlariga, shuningdek, narxlari davlat tomonidan tartibga solinadigan mahsulotlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlariga tatbiq etilmaydi.

2. Mazkur tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

boshlang‘ich narx - davlat xaridlarini rejalashtirishda hamda xarid qilish tartib-taomillari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonni joylashtirishda xarid predmetini bir birlik narxini milliy valyutadagi yuqori chegaraviy qiymati;

aynan bir xil tovar (ish, xizmat) - bir ishlab chiqaruvchi (xizmat ko‘rsatuvchi, ish bajaruvchi) tomonidan aynan bir xil texnologik jarayonga asosan ishlab chiqarilgan (xizmat ko‘rsatilgan, ish bajarilgan), tarkibi, nomi (shu jumladan, modeli, savdo belgisi, turi bo‘yicha) va TIF TN kodlari yoki Yagona milliy klassifikator kodi bo‘yicha bir xil tavsiflangan tovar (ish, xizmat);

o‘xshash tovar (ish, xizmat) – zarur bo‘lgan tovar (ish, xizmat) bilan har jihatdan bir xil bo‘lmasa-da, u bilan o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lganligi va tarkib jihatdan o‘xshashligi tufayli bir xil vazifalarni bajara oladigan hamda tijorat nuqtayi nazaridan, shu jumladan sifati, bozordagi qadri, tovar (ish, xizmat) belgisining mavjudligiga ko‘ra uning o‘rnini bosa oladigan tovar (ish, xizmat);

3. Vakolatli bo‘linma:

xaridlarni o‘tkazishning maqsadga muvofiqligi va zarurligi, tovarni (ishni, xizmatni) tanlashda uning iste’mol xususiyatlari (tavsifi), sifat ko‘rsatkichlarining, shuningdek, davlat xaridlarini o‘tkazish xarajatlarini va tovar (ish, xizmat) qiymatining asoslanganligini hisobga olgan holda amalga oshirishi;

ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanishi, shu jumladan, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) olishdan ko‘rilgan naf, ularning sifati va qiymati o‘rtasidagi maqbul

nisbatini (foydalanish davri xarajatlarini hisobga olgan holda) ta’minlashi;

xaridlar qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baholash uchun ochiq axborot manbalaridagi axborotlardan yoki boshqa ishonchli manbalardan foydalanishi kerak.

4. Ochiq axborot manbalari yoki boshqa ishonchli manbalar deb quyidagilar tushuniladi:

maxsus axborot portalida xarid qilish tartib-taomillari natijalariga koʻra ijro etilgan shartnomalar boʻyicha tovar (ish, xizmat)larning narxlarini oʻrganish imkoniyati yaratilgan alohida sahifa;

davlat xaridlari elektron tizimi orqali xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga elektron shaklda yuborilgan soʻrov, shuningdek tovar (ish, xizmat)ning narxlari aniqlash maqsadida potensial yetkazib beruvchilarga yuborilgan ekektron soʻrov (ushbu tartibga 1-ilova soʻrovning tavsiyaviy skakli) natijasida olingan ma’lumotlar;

birja kotirovka ma’lumotlari;

bosma va elektron axborot manbalarida, shu jumladan internet jahon axborot tarmogʻidagi veb-sayt tarzidagi ommaviy axborot vositasida olti oydan koʻp boʻlmagan muddatda joylashtirilgan ommaviy ofertalardan;

rasmiy statistik hisobotlardan;

xorijiy davlatlar hamda xalqaro tashkilotlarning rasmiy axborot manbalari;

Oʻzbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuniga muvofiq baholash obyektlarining baholash natijalari.

5. Tovar (ish, xizmat)ning boshlangʻich narxni aniqlash uchun ekspert, ekspert tashkiloti yoki ixtisoslashtirilgan tashkiloti xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

6. Vakolatli boʻlinma, shu jumladan ekspert, ekspert tashkiloti yoki ixtisoslashtirilgan tashkilot ochiq axborot manbalardan olingan ma’lumotlarni tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirishi kerak.

2-bob. Boshlangʻich narxni aniqlash usullari

7. Boshlangʻich narxni aniqlash usullari quyidagilardan iborat:

- bozor tahlili usuli;
- tarif usuli;
- loyiha-smeta usuli;
- normativ usul;
- tannarx usuli.

Vakolatli boʻlinma tomonidan boshlangʻich narxni aniqlash usulini tanlash davlat xaridining predmeti va oʻziga xos xususiyatlariga qarab belgilanadi hamda 2-ilovaga muvofiq shaklda rasmiylashtiriladi.

8. Boshlangʻich narxni aniqlash bozor tahlili usuli orqali amalga oshiriladi, bundan mazkur tartibning 9, 10 va 11-bandlarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

9. Tarif usulida boshlangʻich narxni aniqlash uchun narxi (tarifi) davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi amalga oshirilganda qoʻllaniladi.

10. Boshlang‘ich narxni loyiha-smeta usulida aniqlash obyektlarni qurish (rekonstruksiya qilish) yoki ta’mirlash bo‘yicha ishlar bajarilganda, bunday ishlarning loyiha qiymatini aniqlash va tasdiqlash tartibiga qo‘yiladigan talablarni hisobga olgan holda, qurilishning texnik-iqtisodiy asoslari, loyiha hujjatlari asosida, shu jumladan ishchi loyihasi, loyiha-smeta hujjatlari, ishchi hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

11. Boshlang‘ich narxni normativ usulda aniqlash xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha chegaralangan narxlar qonunchilikda belgilanganda qo‘llaniladi.

12. Boshlang‘ich narxni, tannarx usuli bo‘yicha aniqlash, Vakolatli bo‘linma ushbu tartibda nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanish imkoni yo‘qligini asoslab bergan taqdirda, shuningdek boshlang‘ich narxni aniqlashning boshqa usullariga qo‘shimcha tarzda amalga oshiriladi.

3-bob. Boshlang‘ich narxni aniqlashning bozor tahlili usuli

13. Boshlang‘ich narxni bozor tahlili usuli bo‘yicha aniqlash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) aniqlash;
- aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari to‘g‘risida axborot olish;
- aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan narxlarni maksimal og‘ish (o‘zgarish) koeffitsiyenti bo‘yicha tekshirish;
- tegishli formula bo‘yicha davlat xaridlarining boshlang‘ich narxini hisob-kitob qilish.

14. Aynan bir xil tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) aniqlash uchun xaridi rejalashtirilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) funksional, texnik, sifat, ekspluatatsion xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Aynan bir xil tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatida ularga xos bo‘lgan bir xil asosiy belgilari (xususiyatlari, texnik parametrlari)ga ega bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) nazarda tutiladi. Tovarlarning aynan bir xilligini aniqlashda bunday tovarlarning tashqi ko‘rinishidagi kichik farqlar hisobga olinmasligi mumkin.

Aynan bir xil bo‘lmasada, o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lgan va bir xil funksiyalarni bajarishga va (yoki) tijorat nuqtayi nazaridan bir-birini o‘rnini bosish imkonini beradigan o‘xshash tarkibiy qismlardan iborat tovarlar o‘xshash tovarlar hisoblanadi. Tovarlarning o‘xshashligini aniqlashda ularning sifati, bozordagi qiymati, ishlab chiqarilgan mamlakati hisobga olinadi.

15. Aynan bir xil yoki o‘xshash tovarning (ishning, xizmatning) narxlari to‘g‘risidagi axborot tovar miqdori, avans to‘lovining mavjudligi, xarid qilish tartib-taomillari natijalariga ko‘ra tuzilgan shartnoma bo‘yicha ijrochi tomonidan taqdim etilgan zakalat miqdori, yetkazib berish joyi va vaqti, tovar ishlab chiqarilgan mamlakat kabi tovarlarni yetkazib berish (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko‘rsatish)ning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlarini rejalashtirilgan xarid shartlari bilan taqqoslangan holda olinishi kerak.

16. Aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmat)ning narxlari

to‘g‘risidagi axborot mazkur tartibning 4-bandida belgilangan manbalarga muvofiq aniqlanadi.

Bunda, aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmat)ning narxlari to‘g‘risidagi axborot kamida uchta bo‘lishi hamda tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi lozim.

17. Aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari to‘g‘risida quyidagi manbalardan olingan axborotlardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi:

- Insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritilgan yetkazib beruvchilardan;
- anonim manbalardan;
- so‘rov predmetiga javob bermaydigan takliflaridan;
- davlat xaridlarida davlat buyurtmachilari hamda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining reyting darajasi past bo‘lgan yetkazib beruchilardan;
- o‘zaro bir-biriga affillangan yetkazib beruvchilardan.

18. Davlat xaridlari maxsus axborot portalida aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarda quyidagi ma’lumotlar aks ettiriladi:

- xarid qilinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) batafsil tavsifi, ularning miqdori, yetkazib berish muddati, buyurtmachi va ijrochi manzillari, taklifni amal qilish muddati va hisob-kitob shartlari;
- kafolatli xizmat ko‘rsatish shartlari (zarur hollarda);
- tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning aynan bir xilligini (o‘xshashligini) tasdiqlash talablari;
- tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymatining hisob-kitobi mavjudligiga qo‘yiladigan talablar.

19. Aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari to‘g‘risida olingan axborotga rejalashtirilgan davlat xaridlarining xususiyatlari va shartlarini hisobga olgan holda tuzatishlar kiritilishi, jumladan 3-ilovaga muvofiq shartnomani bajarish muddati, tovarlar miqdori (ishlar va xizmatlar hajmi), yetkazib berish joyi, soliqqa tortishdagi o‘zgarishlar inobatga olinishi mumkin.

20. Xarid qilish tartib-taomillari natijalariga ko‘ra majburiyatlari bajarilgan shartnomalar bo‘yicha olingan aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari to‘g‘risidagi axborot 4-ilovaga muvofiq uni tuzishda qo‘llaniladigan xarid qilish tartib-taomillarining turidan kelib chiqqan holda tuzatishlar kiritilishi mumkin.

21. Xarid qilish tartib-taomillari amalga oshirilgunga qadar olingan aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari to‘g‘risidagi axborot olti oydan oshgan hollarda boshlang‘ich narxni belgilashda foydalanilishi mumkin emas.

22. Aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan narxlarni maksimal og‘ish (o‘zgarish koeffitsiyenti) bo‘yicha tekshirish quyidagi formulaga asosan amalga oshiriladi:

O‘zgarish koeffitsiyenti=o‘rtacha kvadratik og‘ish÷o‘rtacha arifmetik narx×1**1111** bu yerda,

$$o‘rtacha\ kvadratik\ og‘ish = \sqrt{\frac{(N1-o‘rtacha\ narx)^{22}+(N22-o‘rtacha\ narx)^{22}+\cdots+(Nn-o‘rtacha\ narx)^{22}}{narxlar\ soni-1}}$$

N – narx;

n – hisoblashda foydalanilgan qiymatlar soni;

$$O'rtacha\ arifmetik\ narx = \frac{N1+N22+\cdots+Nn}{n}$$

N – narx;

n – taklif etilgan narxlar soni;

23. Aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan narxlar, agar ular chegaralangan og‘ish darajasidan oshmasa, ya’ni o‘zgarish koeffitsiyentining maksimal qiymatiga, ya’ni 33 foizga to‘g‘ri kelsa, boshlang‘ich narxni aniqlash uchun foydalanishga ruxsat etiladi.

24. Boshlang‘ich narxni aniqlash uchun o‘zgarish koeffitsiyenti 33 foizdan ortiq bo‘lgan aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan narxlardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

25. Agar aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan narxlarni aniqlash natijalari bo‘yicha chegaralangan og‘ishlar bo‘yicha o‘zgarish koeffitsiyenti 33 foizdan yuqori bo‘lsa, Vakolatli bo‘linma tomonidan aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari to‘g‘risidagi yangi axborot ushbu tartibning 4-bandida nazarda tutilgan usullarda yig‘iladi.

26. Davlat xaridlarining boshlang‘ich narxini hisoblash quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$BN = \frac{v}{n} * \sum_{i=1}^{n} S_i$$

BN - bozor tahlili usuli bilan belgilanadigan davlat xaridlarining boshlang‘ich narxi;

v - xarid qidinadigan tovar (ish, xizmat) miqdori (hajmi);

n - hisob-kitobda foydalaniladigan aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun narx qiymatlari soni;

i - narx axboroti raqami;

s_i *- narx axborotida i raqami bilan ko‘rsatilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) birligining narxi;*

zarur hollarda ushbu tartibning 19-21-bandlariga muvofiq tovarlarning xususiyatlari, tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatishning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlaridagi farqlarni hisobga olgan holda tuzatishlar kiritilishi mumkin.

4-bob. Tarif usuli bilan boshlang‘ich narxni aniqlash tartibi

27. Tarif usuli bilan boshlang‘ich narxni aniqlash Vakolatli bo‘linma tomonidan amalga oshiriladi, bunda, davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning bir birligi uchun belgilangan narxni (tarifni) xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning miqdoriga ko‘paytirish orqali amalga oshiriladi.

5-bob. Boshlang‘ich narxni loyiha-smeta usulida aniqlash tartibi

28. Boshlang‘ich narxni loyiha-smeta usuli bilan aniqlash Vakolatli bo‘linma tomonidan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- loyiha hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan obyektlarni qurish (rekonstruksiya qilish) yoki ta’mirlash bo‘yicha ishlar;
- muhandislik qidiruv va (yoki) loyiha hujjatlarini tayyorlash bo‘yicha ishlar.

29. Boshlang‘ich narxni loyiha-smeta usulida aniqlash joriy ta’mirlash ishlari bo‘yicha xarid qilish-tartib taomillari o‘tkazilganda Vakolatli bo‘linma tomonidan amalga oshirishi mumkin.

30. Boshlang‘ich narxni loyiha-smeta usuli bo‘yicha aniqlash qurilish ishlarining smeta qiymatini quyidagi hujjatlar asosida aniqlash va tasdiqlashni o‘z ichiga oladi:

- qurilishning texnik-iqtisodiy asoslanishi;
- qurilishning texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari;
- loyiha hujjatlari, shu jumladan ishchi loyiha, loyiha-smeta hujjatlari, ishchi hujjatlar.

31. Loyiha-smeta usuli bilan boshlang‘ich narxni aniqlash quyidagilar hisobga olingan holda amalga oshiriladi:

- O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan obyektlarni qurish va (yoki) rekonstruksiya qilish bo‘yicha ishlarning smeta qiymatini aniqlashning ishonchliligini tekshirish yoki obyektni qurish (rekonstruksiya qilish)ning smeta (chegaralangan) qiymatini aniqlash;
- O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan loyiha hujjatlarining bo‘limlari mazmuniga qo‘yiladigan talablarga majburiy rioya etilishi (bundan joriy ta’mirlash bo‘yicha ishlarning davlat xaridi chog‘ida boshlang‘ich narx loyiha-smeta usulida asoslantirilgan hollar mustasno);
- smeta normalari va normativlarini, shuningdek qurilish resurslarining smeta narxlarini majburiy qo‘llash.

6-bob. Boshlang‘ich narxni normativ (me’yoriy) usul bilan aniqlash

32. Boshlang‘ich narxni normativ usulda aniqlash Jamiyat uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun chegaralangan narxlar belgilanganda yoki Jamiyat amalga oshiradigan xaridlari miqdori chegaralanganda, Vakolatli bo‘linma tomonidan amalga oshiriladi.

33. Boshlang‘ich narxni normativ usulda aniqlash tovarlar (ishlar, xizmatlar) miqdorini tovar (ish, xizmat) birligiga belgilangan chegaralangan narxga ko‘paytirish orqali amalga oshiriladi.

34. Normativ usuldan foydalangan holda boshlang‘ich narxni aniqlash sharti bir vaqtning o‘zida bozor tahlili usuli bilan foydalanish hisoblanadi.

Agar bozor tahlili usulini qo‘llashda boshlang‘ich narx normativ usul bilan hisoblangan narxdan past bo‘lsa, bozor tahlili usuli natijalari bo‘yicha olingan boshlang‘ich narx to‘g‘ri asoslangan hisoblanadi.

7-bob. Tannarx (xarajat) usuli bilan boshlang‘ich narxni aniqlash

35. Boshlang‘ich narxni tannarx (xarajat) usuli bilan aniqlash Vakolatli bo‘linma tomonidan ushbu tartibda nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanishning imkoni mavjud bo‘lmaganda yoki boshlang‘ich narxnini aniqlashning boshqa usullariga qo‘shimcha asoslantirish sifatida amalga oshiriladi.

36. Boshlang‘ich narxni tannarx (xarajat) usuli bilan aniqlash tovarlar yetkazib berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bevosita va bilvosita

xarajatlarni, shuningdek iqtisodiy faoliyatning tegishli turi uchun foydaning o‘rtacha normasini umumlashtirish orqali amalga oshiriladi.

37. Tegishli iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha daromad darajasi to‘g‘risida ma’lumot quyidagicha olinishi mumkin:

- Vakolatli bo‘linma tomonidan mustaqil ravishda, ixtisoslashtirilgan yoki ekspert tashkilotini jalb qilgan holda o‘tkazilgan bozor tadqiqotlari natijalariga qo‘ra;
- ushbu tartibning 4-bandida belgilangan ochiq axborot manbalari yoki boshqa ishonchli manbalardan.

38. Bevosita va bilvosita xarajatlarga xodimlar bilan bog‘liq xarajatlar, ijtimoiy ehtiyojlar uchun majburiy soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlar, transportda tashish, saqlash, sug‘urta, materiallar va butlovchi qismlarni sotib olish, yuk xarajatlari, ijara haqi, kommunal va ekspluatatsiya to‘lovlari va iqtisodiy asosga ega bo‘lgan boshqa turdagi xarajatlar kiradi.

“Uzautocomponents”
MCHJning davlat xaridlarini amalga oshirishda boshlang‘ich narxni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi tartibga
1-ILOVA

Aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar, ishlar, xizmatlar narxlari to‘g‘risida ma’lumot SO‘ROVI

“__” _____.20____yil

Hurmatli _____*(tadbirkorlik subyekti nomi)*,

So‘rovni yuborish maqsadi, davlat xaridlarini amalga oshirish uchun quyida keltirilgan tovar (ish, xizmat)larning boshlang‘ich narxlarini amalga oshirish haqidagi tegishli ma’lumotlarni tahlil qilishdan iborat.

Shu sababli Sizdan ushbu (ish, xizmat)larning narxlari hamda ko‘rsatilgan xususiyatlarga ko‘ra quyidagi ma’lumotlarni taqdim qilishingizni so‘raymiz.

Davlat xaridi obyektining nomi:	
Davlat xaridi obyektining sifat, funksional va ekologik xususiyatlari:	
Xizmatning kafolat muddatiga va (yoki) ularning sifati kafolatlarini taqdim etish doirasiga qo‘yiladigan talablar:	
To‘lov tartibi:	
Xizmatning kafolat muddatiga va (yoki) ularning sifati kafolatlarini taqdim etish doirasiga qo‘yiladigan talablar	
Tovarlarni yetkazib berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) tartibiga qo‘yiladigan talablar:	

Boshqa ma’lumotlar:

№	Tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomi	O‘lchov birligi	Bir birlik narxi	Yagona milliy klassifikator kodi / TIF TN kodi
1				
2				
...				

Narxlar to‘g‘risidagi axborotni quyidagi manzilga _____ish kuni muddatida taqdim etishingizni so‘raymiz:

Buyurtmachining:

yuridik manzil: _____

elektron pochta manzili: _____

Telefon raqami: _____

Ma’lumot uchun:

So‘rov oferta hisoblanmaydi va shartnoma tuzish uchun asos bo‘lmaydi.

So‘rovga berilgan javobda tovar (ish, xizmat)lar bir birligining narxi, so‘rovda ko‘rsatilgan shartlar bo‘yicha taklif etilayotgan narxning amal qilish muddati va tadbirkorlik subyektining rekvizitlari ko‘rsatiladi, bunda tovar (ish, xizsmat) narxlarini ataylab oshirib yoki past ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tashkilot rahbari (lavozimi, FIO) (imzo, muhr)

«Uzautocomponents”
MCHJning davlat xaridlarini amalga oshirishda boshlang‘ich narxni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi tartibga
2- ILOVA

“__” _____.20____yil

Boshlang‘ich narxni aniqlash usulini tanlash bo‘yicha
ASOSLASH MA’LUMOTNOMASI

Davlat xaridlarini amalga oshirishda tovar (ish, xizmat)ning boshlang‘ich narxini aniqlash uchun asos bo‘lgan hujjatlar, axborot manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar	
Davlat xaridlarini amalga oshirishda tovar (ish, xizmat)ning boshlang‘ich narxini aniqlash uchun foydalanilgan usul va uni tanlash asoslari	
Davlat xaridlarini amalga oshirishda tovar (ish, xizmat)ning boshlang‘ich narxini hisoblash asoslari	

Vakolatli bo‘linma boshlig‘i
(F.I.Sh.)

_____
(Imzo)

«Uzautocomponents”
MCHJning davlat xaridlarini amalga oshirishda boshlang‘ich narxni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi tartibga
3-ILOVA

Muayyan davlat xaridlari shartlariga qarab aynan bir xil yoki o‘xshash tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun bozor narxlarini qayta hisoblash uchun foydalaniladigan
PARAMETRLAR

<table>
<tr><th>Davlat xaridlarini amalga oshirishda tovar (ish, xizmat)ning boshlang‘ich narxini aniqlash parametrlari</th><th>Xarid predmeti parametrlari</th><th>Qonunchilikdagi o‘zgarishlar parametrlari/Iqtisodiy parametrlar</th></tr>
<tr><td>Muddat</td><td rowspan="4">Solishtirma o‘lchov bo‘yicha tovar (ish, xizmat)larning tarkibi va tuzilmasi</td><td rowspan="2">Soliq siyosatini tartibga solishdagi o‘zgarishlar</td></tr>
<tr><td>Hajm (soni)</td></tr>
<tr><td>Oldindan to‘lovning mavjudligi / mavjud emasligi</td><td rowspan="2">Bojxona siyosatini tartibga solishdagi o‘zgarishlar</td></tr>
<tr><td>Yetkazib berish (ijro etish) joyi</td></tr>
<tr><td>Kafolat xizmati yoki shartnomadan keyingi texnik xizmat ko‘rsatish muddatlari</td><td rowspan="3">Davlat xaridining umumiy hajmiga nisbatan tovar (ish, xizmat)lar bilan to‘ldirish yoki kamaytirish</td><td rowspan="2">Valyuta kurslarining o‘zgarishi (agar ko‘zda tutilgan bo‘lsa)</td></tr>
<tr><td>Davlat xaridlarining bajarishni ta’minlash miqdori</td></tr>
<tr><td>Sanksiyalar va jarima shartlari miqdori</td><td>Joriy narxlar darajasiga keltirish (agar axborot to‘planganidan beri bir chorakdan ko‘proq vaqt o‘tgan bo‘lsa)</td></tr>
</table>

«Uzautocomponents”
MCHJning davlat xaridlarini amalga oshirishda boshlang‘ich narxni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi tartibga
4-ILOVA

Davlat xaridlarini amalga oshirishda tovar (ish, xizmat)ning aniqlangan boshlang‘ich narxiga xarid qilish tartib-qoidalarining turiga qarab tuzatish kiritish
PARAMETRLARI

Xarid turi nomi	**Tuzatish parametrlari**
Elektron do‘kon	Boshlang‘ich narxga 17 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda tuzatish kiritiladi
Auksion	Boshlang‘ich narxga 12 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda tuzatish kiritiladi
Eng yaxshi takliflarni tanlash	Boshlang‘ich narxga 15 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda tuzatish kiritiladi
Tender	Boshlang‘ich narxga 10 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda tuzatish kiritiladi
To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma	Boshlang‘ich narxga tuzatish kiritilmaydi
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari	Boshlang‘ich narxga 10 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda tuzatish kiritiladi

Faoliyat	Buyurtmachi (Tarkibiy bo‘linma)	Vakolatli bo‘linma	Xarid komissiyasi	Komplayens xizmati	Yuridik boshqarma	Ichki audit xizmati	Rahbariyat /Izmolash vakolatiga ega shaxs/ Kuzatuv kengashi
1. Yillik/Choraklik reja-jadval shakllantirish	**A/R**	I	-	-	-	-	A
2. Reja-jadval konsolidatsiyasi va tasdiqlash	I	**A/R**	-	-	-	-	A
3. XB shakllantirish va tasdiqlash	**A/R**	C	-	-	-	-	A
4. Boshlang‘ich narxni belgilash	C	**A/R**	-	-	-	-	-
5. Xarid turini belgilash	I	**A/R**	-	-	-	-	-
6. Texnik topshiriq (TT) tayyorlash va tasdiqlash	**A/R**	C	C	C	-	-	A
7. Xarid hujjatlari tayyorlash	C	**A/R**	A	C	C	C	-
8. Ekspertiza (25 000 BHM >)	I	**A/R**	-	-	-	-	-
9. E’lon joylashtirish (MAP)	-	**A/R**	-	-	-	-	-
10. Takliflarni texnik baholash	**A/R**	C	A	**A/R**	-	-	-
11. Takliflarni yakuniy baholash va g‘olib aniqlash	I	R	**A/R**	C	-	-	-
12. Shartnoma loyihasini tayyorlash	C	**A/R**	C	C	**A/R**	C	-
13. Shartnomani kelishish va tasdiqlash (EDO varaqasi)	C	**A/R**	C	C	C	C	**A**
14. Shartnoma ma’lumotlarini MAPga joylashtirish	-	**A/R**	-	-	-	-	-
15. TIX qabul qilish va dalolatnoma rasmiylashtirish	**A/R**	I	-	C	-	C	-

Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga 2-ILOVA

Davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmi

Reja-jadval			
Bosqichlar	**Ma’sul tarkibiy tuzilmaviy bo‘linma**	**Chora-tadbirlar**	**Muddatlar**
1-bosqich	Jamiyatning tarkibiy tuzilmaviy bo‘linmalari	Yillik reja-jadvalini (keyingi yil uchun) shakllantiradi va vakolatli bo‘linmaga taqdim etadi.	Joriy yilning 30- oktyabrga qadar
		Choraklik reja-jadvallarini (keyingi chorak uchun) shakllantiradi va vakolatli bo‘linmaga taqdim etadi.	Joriy chorak oxirgi oyining 10 sanasiga qadar
2-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Kelib tushgan yillik yoki choraklik reja-jadval ma’lumotlari vakolatli bo‘linma tomonidan ularni olgan kundan boshlab besh ish kuni ichida konsolidatsiya qilinadi va reja-jadval tegishli boshqarmalarga ko‘rib chiqish uchun EDO orqali yuboriladi.	Qabul qilingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida
		Tegishli boshqarmalar xulosalari olingandan so‘ng vakolatli bo‘linma ikki ish kuni ichida reja-jadvalni yakuniy konsolidatsiya qiladi va EDO orqali Jamiyat rahbariyatiga tasdiqlash uchun kiritadi.	Xulosa olingandan so‘ng 2 ish kuni
		Tasdiqlangan yillik reja-jadvalni vakolatli bo‘linma Korporativ kotibiyatga 5-dekabrgacha (choraklik reja-jadval — joriy chorakning oxirgi oyidagi 15-sanaga qadar) topshiradi.	5-dekabrgacha / 15-sanagacha

3-bosqich	Korporativ kotibiyat	Korporativ kotibiyat yillik reja-jadvalni kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun kiritadi va tasdiqlangan reja-jadvalni joriy yilning 20-dekabrigacha vakolatli bo‘linmaga topshiradi (choraklik — oxirgi oy 20-sanasigacha).	20-dekabrgacha / 20-sanagacha
4-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Tasdiqlangan yillik reja-jadvalni 25-dekabrgacha MAPga joylashtiradi (choraklik reja-jadval — joriy chorakning oxirgi oyidagi 25-sanaga qadar).	25-dekabrgacha / 25-sanagacha
Xarid qilish uchun buyurtma			
Bosqichlar	**Ma’sul tarkibiy tuzilmaviy bo‘linma**	**Chora-tadbirlar**	**Muddatlar**
1-bosqich	Jamiyatning tarkibiy tuzilmaviy bo‘linmalari	Jamiyatning tarkibiy tuzilmaviy bo‘linmalari mazkur Nizomda belgilangan shaklga muvofiq, import TIX bo‘yicha yetkazib berish zarur bo‘lgan sanadan kamida 6 oy oldin, mahalliy TIX bo‘yicha esa 3 oy oldin EDO orqali xarid buyurtmasini (XB) shakllantiradi hamda Jamiyat rahbariyatiga tasdiqlash uchun kiritadi.	Import TIX uchun - yetkazib berish zarur bo‘lgan sanadan 6 oy oldin; mahalliy TIX uchun - yetkazib berish zarur bo‘lgan sanadan 3 oy oldin
2-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma kelib tushgan XBni EDO orqali olganidan so‘ng 3 ish kuni ichida uni ko‘rib chiqadi, ma’lumotlar to‘liqligi va tavsiflarning to‘g‘riligini baholaydi hamda zarur hollarda XBni to‘ldirish yoki qayta ishlash uchun EDO orqali tarkibiy bo‘linmaga qaytarishi mumkin.	3 ish kuni

Boshlang‘ich narxni belgilash			
Bosqichlar	**Ma’sul tarkibiy tuzilmaviy bo‘linma**	**Chora-tadbirlar**	**Muddatlar**
1-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma tasdiqlangan XBga muvofiq TIX xaridi boshlang‘ich narxini mazkur nizomda o‘rnatilgan tartibga muvofiq amalga oshiradi.	XB ijro uchun kelib tushgan kundan boshlab 10 ish kuni
Xarid turini belgilash			
Bosqichlar	**Ma’sul tarkibiy tuzilmaviy bo‘linma**	**Chora-tadbirlar**	**Muddatlar**
1-bosqich	Vakolatli bo‘linma	TIX xususiyatlari va boshlang‘ich narxidan kelib chiqib xarid turlaridan birini mustaqil tanlaydi.	Boshlang‘ich narxni belgilangandan so‘ng 2 ish kuni
Elektron do‘kon			
Bosqichlar	**Ma’sul tarkibiy tuzilmaviy bo‘linma**	**Chora-tadbirlar**	**Muddatlar**
1-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma MAPning elektron do‘kon bo‘limida mavjud ofertalarni o‘rganadi va belgilangan boshlang‘ich narxdan baland bo‘lmagan va ijro uchun kelib tushgan XBda keltirilgan TIXning texnik parametrlariga mos keladigan	Xarid turi belgilangan kundan 5 ish kuni ichida

		ofertaga, xarid turi belgilangan sanadan boshlab 5 ish kuni ichida, narx so‘rovini yuboradi.	
2-bosqich	MAP	Vakolatli bo‘linma tomonidan tanlangan ofertada bayon etilgan shartlarga muvofiq hamda ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan eng past narxda shartnomani MAPda 48 soat ichida avtomatik ravishda shakllantiradi.	Narx so‘rovi yuborilgandan so‘ng 48 ish soati
3-bosqich	MAP	Agar xarid qilish tartib-taomilining yakuniga ko‘ra faqat tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchigina ishtirok etgan bo‘lsa, vakolatli bo‘linma va ishtirokchi o‘rtasida elektron shaklda savdolashish imkonini yaratadi va savdolar yakuniga ko‘ra shartnomani shakllantiradi yoki xarid qilish tartib-taomilini o‘tkazilmagan deb topadi.	1 ish kuni
4-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma tuzilgan shartnomani shartnoma shakllantirilgan kundan boshlab ikki ish kuni ichida shartnomani tasdiqlash varaqasini EDOga kiritadi.	2 ish kuni
Auksion			
Bosqichlar	**Ma’sul tarkibiy tuzilmaviy bo‘linma**	**Chora-tadbirlar**	**Muddatlar**
1-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma, xarid turi belgilangan sanadan boshlab ikki ish kuni ichida, MAPning boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion bo‘limida reja-jadval va XBga muvofiq e’lon joylashtiradi.	Xarid turi belgilangan kundan **2 ish kuni ichida**

2-bosqich	MAP	MAP auksion yakuniga ko‘ra berilgan takliflar orasida eng past narxni taklif qilgan ishtirokchini auksion g‘olibi sifatida saralab oladi hamda u va Jamiyat o‘rtasidagi shartnomani avtomatik ravishda shakllantiradi.	E‘lon berilgan kundan eng kamida 5 ish kuni
3-bosqich	Vakolatli bo‘linma, MAP	Agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo‘lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo‘lsa, auksionni o‘tkazilmagan deb hisoblanadi.	
4-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma tuzilgan shartnomani shartnoma shakllantirilgan kundan boshlab ikki ish kuni ichida shartnomani tasdiqlash varaqasini EDOga kiritadi.	2 ish kuni
Elektron eng yaxshi takliflarni tanlash			
Bosqichlar	**Ma’sul tarkibiy tuzilmaviy bo‘linma**	**Chora-tadbirlar**	**Muddatlar**
1-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjati loyihasi matnini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun elektron shaklda xarid turi belgilangan so‘ng o‘n ish kuni ichida kiritadi;	10 ish kuni
2-bosqich	Xarid komissiyasi	Xarid komissiyasi besh ish kuni ichida tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi.	5 ish kuni
3-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma xarid hujjatlari tasdiqlangan kundan boshlab ikki ish kuni ichida tasdiqlangan tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari, texnik topshiriq, shuningdek, tanlash o‘tkazish	2 ish kuni

		haqidagi e’lonni davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiradi.	
4-bosqich	Xarid komissiyasi kotibi	Takliflarni qabul qilish muddati tugagandan so‘ng xarid komissiyasi kotibi uch ish kuni ichida ishtirokchilarning tanlash taklifida ko‘rsatilgan ma’lumotlarini xarid hujjatlari talablariga muvofiqligini tekshiradi va ishtirokchilar hujjatlarini xarid komissiyasiga tanishish uchun va buyurtmachiga texnik baholash uchun EDO orqali yuboradi.	3 ish kuni
5-bosqich	Buyurtmachi	Buyurtmachi uch ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari takliflarini texnik topshiriq talablariga muvofiqligini hamda xarid hujjatlarida tasdiqlangan mezonlarga muvofiq texnik baholaydi va ko‘rib chiqish uchun Jamiyatning komplayens xizmatiga taqdim etadi.	3 ish kuni
6-bosqich	Komlayens xizmati	Komplayens xizmati uch ish kuni ichida tanlash bo‘yicha ishtirokchilar takliflarining texnik baholashni amaldagi qonunchilik hamda tasdiqlangan mezonlarga muvofiq to‘g‘ri baholanganligi yuzasidan o‘z xulosasini beradi.	3 ish kuni
7-bosqich	Buyurtmachi	Komplayens xizmati texnik baholash jarayonida kamchiliklar mavjudligini aniqlasa va/yoki asosli e’tirozlar bildirsa, buyurtmachi texnik baholashni bir ish kuni ichida qayta ko‘rib chiqadi.	1 ish kuni
8-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Komplayens xizmati bilan kelishilgan texnik baholashni vakolatli bo‘linmaga taqdim qilingan kundan boshlab 1 ish	1 ish kuni

		kuni ichida vakolatli bo‘linma MAPga xarid komissiyasi tasdiqlashi uchun kiritadi.	
9-bosqich	Xarid komissiyasi	Xarid komissiyasining har bir a’zosi o‘zining MAPdagi shaxsiy kabineti orqali ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Belgilangan muddatlarda xarid komissiyasi a’zosi shaxsiy kabineti orqali ovoz berishdan bo‘yin tovlagan taqdirda, u ovoz berishdan bosh tortgan deb tan olinadi. Xarid komissiyasi raisi yoki uning vazifasini bajaruvchi ovoz berishdan bosh tortishga haqli emas.	3 ish kuni
10-bosqich	MAP	Tanlash takliflarini ko‘rib chiqish hamda baholash natijalarini avtomatik ravishda shakllanadigan dastlabki elektron bayonnomada qayd etadi va rasmiylashtirilgan kundan e’tiboran ikki ish kunida muhokama uchun joylashtiradi.	
11-bosqich	Xarid komissiyasi	Xarid komissiyasi takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran o‘n ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda: — Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha e’tirozlar tushmagan bo‘lsa, bu to‘g‘risida tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtiradi. — Tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha tanlash ishtirokchilaridan e’tirozlar tushganda ushbu e’tirozlarni ko‘rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.	10 ish kuni ichida

12-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtirilgan kundan e’tiboran ikki ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda Jamiyat va g‘olib deb topilgan ishtirokchi o‘rtasidagi shartnomani tasdiqlash varaqasini EDOga kiritadi.	2 ish kuni
13-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma shartnoma imzolangan kundan e’tiboran uch ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlarni MAPning tegishli bo‘limiga joylashtiradi.	3 ish kuni ish kuni
Tender vositasida xaridlarini amalga oshirish			
Bosqichlar	**Ma’sul tarkibiy tuzilmaviy bo‘linma**	**Chora-tadbirlar**	**Muddatlar**
1-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma tender bo‘yicha xarid hujjatlari loyihasini xarid turi belgilangan kundan boshlab besh ish kuni ichida ishlab chiqadi va Xarid komissiyasiga kelishish uchun EDO orqali kiritadi.	5 ish kuni
2-bosqich	Xarid komissiyasi	Xarid komissiyasi tender bo‘yicha xarid hujjatlarini besh ish kuni ichida qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi.	5 ish kuni
3-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma xarid hujjatlari tasdiqlangan kundan boshlab ikki ish kuni ichida tasdiqlangan tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari, texnik topshiriqni ushbu nizomda o‘rnatilgan tartibda ekspertizadan o‘tkazish uchun kiritadi.	2 ish kuni
4-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Ijobiy ekspertiza xulosasi olingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida Vakolatli bo‘linma tasdiqlangan xarid hujjatlari, texnik	2 ish kuni

		topshiriq hamda tender o‘tkazish haqidagi e’lonni davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtiradi.	
5-bosqich	Xarid komissiyasi kotibi	Takliflarni qabul qilish muddati tugagach, Xarid komissiyasi kotibi uch ish kuni ichida ishtirokchilarning yuklangan fayllardagi ma’lumotlarini ularning tender takliflarida ko‘rsatilgan ma’lumotlar bilan taqqoslab tekshiradi va hujjatlarni Xarid komissiyasiga hamda buyurtmachiga texnik baholash uchun EDO orqali yuboradi.	3 ish kuni
6-bosqich	Buyurtmachi	Buyurtmachi uch ish kuni ichida tender ishtirokchilari takliflarini texnik topshiriq talablari va tasdiqlangan mezonlarga muvofiq baholaydi hamda Komplayens xizmatiga ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi.	3 ish kuni
7-bosqich	Komplayens xizmati	Komplayens xizmati uch ish kuni ichida tender bo‘yicha ishtirokchilar takliflarining texnik baholashni amaldagi qonunchilik hamda tasdiqlangan mezonlarga muvofiq to‘g‘ri baholanganligi yuzasidan o‘z xulosasini beradi.	3 ish kuni
8-bosqich	Buyurtmachi	Komplayens xizmati texnik baholash yuzasidan kamchiliklar aniqlasa yoki asosli e’tiroz bildirsa, buyurtmachi texnik baholashni bir ish kuni ichida qayta ko‘rib chiqadi.	1 ish kuni
9-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Komplayens xulosasi kelishilganidan so‘ng, buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan texnik baholash bir ish kuni ichida Vakolatli bo‘linmaga yuboriladi va Vakolatli bo‘linma uni MAP orqali Xarid komissiyasi tasdiqlashi uchun kiritadi.	1 ish kuni
10-bosqich	MAP	Tanlash takliflarini ko‘rib chiqish hamda baholash natijalarini avtomatik ravishda shakllanadigan dastlabki elektron	

		bayonnomada qayd etadi va rasmiylashtirilgan kundan e’tiboran ikki ish kunida muhokama uchun joylashtiradi.	
11-bosqich	Xarid komissiyasi	Xarid komissiyasi takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran o‘n ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda: - Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha e’tirozlar tushmagan bo‘lsa, bu to‘g‘risida tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtiradi. - Tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha tanlash ishtirokchilaridan e’tirozlar tushganda ushbu e’tirozlarni ko‘rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.	10 ish kuni ichida
12-bosqich	Xarid komissiyasi	Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha e’tirozlar tushmagan bo‘lsa, bu to‘g‘risida tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtiradi; Tender o‘tkazish natijalari bo‘yicha tanlash ishtirokchilaridan e’tirozlar tushganda ushbu e’tirozlarni ko‘rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.	O‘n ish kuni
11-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtirilgan kundan e’tiboran ikki ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda Jamiyat va g‘olib deb topilgan ishtirokchi o‘rtasidagi shartnomani tasdiqlash varaqasini EDOga kiritadi.	2 ish kuni

12-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma shartnoma imzolangan kundan e’tiboran uch ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlarni MAPning tegishli bo‘limiga joylashtiradi.	3 ish kuni
Ikki bosqichli TIXning xaridlari			
Bosqichlar	**Ma’sul tarkibiy tuzilmaviy bo‘linma**	**Chora-tadbirlar**	**Muddatlar**
1-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Ikki bosqichli xarid o‘tkazish zarur bo‘lgan holatlarda xarid turi belgilangan kundan boshlab besh ish kuni ichida ikki bosqichli xarid bo‘yicha xarid hujjatlari loyihasini ishlab chiqadi va Xarid komissiyasiga kelishish uchun EDO orqali kiritadi.	5 ish kuni
2-bosqich	Xarid komissiyasi	Xarid komissiyasi ikki bosqichli xarid bo‘yicha xarid hujjatlarini besh ish kuni ichida qonunchilik va mezonlarga muvofiqligi yuzasidan ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi.	5 ish kuni
3-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma xarid hujjatlari tasdiqlangan kundan boshlab ikki ish kuni ichida tasdiqlangan ikki bosqichli TIXning xaridlari bo‘yicha xarid qilish hujjatlari, texnik topshiriqni ushbu nizomda o‘rnatilgan tartibda ekspertizadan o‘tkazish uchun kiritadi.	2 ish kuni

4-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Ijobiy ekspertiza xulosasi olinganidan so‘ng ikki ish kuni ichida Vakolatli bo‘linma tasdiqlangan xarid hujjatlari, texnik topshiriq va ikki bosqichli xarid o‘tkazish haqidagi e’lonni MAPga joylashtiradi.	2 ish kuni
5-bosqich	Ishtirokchilar	Birinchi bosqichda ishtirokchilar TIXning minimal texnik xususiyatlari va funksional talablari asosida dastlabki texnik takliflarini taqdim etadi.	
6-bosqich	Xarid komissiyasi	Takliflarni qabul qilish muddati tugagandan so‘ng Xarid komissiyasi birinchi bosqich takliflarini ko‘rib chiqadi va xarid hujjatlarida belgilangan texnik parametrlar bo‘yicha eng maqbul texnik yechimni taklif etgan ishtirokchilarni keyingi bosqichga o‘tkazadi. Ikkinchi bosqichga birinchi bosqichdan o‘tgan kamida ikki nafar ishtirokchining takliflari mavjud bo‘lganda o‘tkaziladi.	
7-bosqich	Xarid komissiyasi	Ikkinchi bosqich faqat birinchi bosqichdan kamida ikki nafar ishtirokchi o‘tgan taqdirda o‘tkaziladi.	
8-bosqich	Buyurtmachi	Ikkinchi bosqichga tayyorgarlik jarayonida buyurtmachi birinchi bosqich natijalaridan kelib chiqib texnik talablarni aniqlashtirishi yoki takomillashtirishi mumkin, biroq xarid predmetini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.	
9-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma tomonidan Ikki bosqichli TIXning xaridlarining ikkinchi bosqichida o‘zgartirish kiritilgan xarid qilish hujjatlari birinchi bosqichdan muvaffaqiyatli o‘tgan ishtirokchilarga yigirma ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatda	20 ish kunidan oshmagan muddat

		yuboriladi va ularga o‘z uzil-kesil takliflarini taqdim etish orqali xaridda ishtirok etish taklif qilinadi.	
10-bosqich	Xarid komissiyasi	Takliflar turli darajadagi texnik afzalliklardan, iqtisodiy barqarorlik jihatlaridan, shu jumladan hayotiy davrning qiymatidan kelib chiqqan holda baholanadi. Yakuniy baholash xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatilgan tartibda xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.	
11-bosqich	Xarid komissiyasi	Ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash muddati har bir bosqich bo‘yicha takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran yigirma ish kunidan oshishi mumkin emas.	20 ish kunidan oshmagan muddat
12-bosqich	Xarid komissiyasi	Takliflarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ikki bosqichli TIXning xaridlari, agar ikkinchi bosqichda xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo‘lsa, o‘tkazilmagan deb hisoblanadi.	
13-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtirilgan kundan e’tiboran ikki ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda Jamiyat va g‘olib deb topilgan ishtirokchi o‘rtasidagi shartnomani tasdiqlash varaqasini EDOga kiritadi.	2 ish kuni
14-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma shartnoma imzolangan kundan e’tiboran uch ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlarni MAPning tegishli bo‘limiga joylashtiradi.	3 ish kuni

Hadli kelishuv vositasida xarid qilish tartibi			
Bosqichlar	**Ma’sul tarkibiy tuzilmaviy bo‘linma**	**Chora-tadbirlar**	**Muddatlar**
1-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma xarid turi belgilangandan so‘ng besh ish kuni ichida hadli kelishuv bo‘yicha xarid qilish hujjatlari loyihasini ishlab chiqadi va ularni kelishish uchun EDO orqali Xarid komissiyasiga kiritadi.	5 ish kuni
2-bosqich	Xarid komissiyasi	Xarid komissiyasi hadli kelishuv bo‘yicha xarid hujjatlarini besh ish kuni ichida qonunchilikka va belgilangan mezonlarga muvofiqligi yuzasidan ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi.	5 ish kuni
3-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Xarid hujjatlari tasdiqlanganidan so‘ng Vakolatli bo‘linma ikki ish kuni ichida tasdiqlangan xarid hujjatlari, texnik topshiriq hamda hadli kelishuv asosida xarid o‘tkazish haqidagi e’lonni MAPga joylashtiradi.	2 ish kuni
4-bosqich	Xarid komissiyasi	Takliflarni qabul qilish yakunlangandan so‘ng Xarid komissiyasi qirq besh ish kunidan oshmagan muddatda: • biriktirilgan hujjatlar ma’lumotlarining ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan taklifga muvofiqligini tekshiradi; • taklifning xarid hujjatlariga muvofiqligi (yoki nomuvofiqligi) bo‘yicha asoslantirilgan xulosani kiritadi; • miqdor ko‘rsatkichlariga ega bo‘lmagan takliflarni texnik (ekspert) mezonlari asosida baholaydi va MAPda avtomatik shakllantirilgan birinchi bosqich elektron bayonnomasini imzolaydi.	45 ish kunidan oshmagan muddat

5-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma g‘olib aniqlangan paytdan boshlab o‘n ish kunidan kechiktirmay xarid hujjatlarida belgilangan talablarni qanoatlantirgan kamida uch nafar ishtirokchi bilan hadli kelishuvni tasdiqlash varaqasi bilan EDOga kiritadi.	10 ish kuni
6-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Hadli kelishuvning ikkinchi bosqichida shartnoma tuzish uchun birinchi bosqichdan o‘tgan hamda hadli kelishuv imzolagan ishtirokchilarga MAP orqali narx so‘rovi yuboriladi.	
7-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Narx so‘rovi natijalari va yakuniy baholash bo‘yicha aniqlangan g‘olib bilan hadli kelishuvning umumiy summasi va amal qilish muddati doirasida shartnoma tasdiqlash varaqasi Vakolatli bo‘linma tomonidan EDOga kiritiladi.	
8-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma shartnoma imzolangan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlarni MAPning tegishli bo‘limiga joylashtiradi.	3 ish kun
To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma orqali davlat xaridlarini amalga oshirish			
Chora-tadbirlar	**Chora-tadbirlar**	**Chora-tadbirlar**	**Chora-tadbirlar**
1-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma xarid turi belgilangandan so‘ng besh ish kuni ichida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma loyihasini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritadi.	5 ish kuni
2-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Vakolatli bo‘linma shartnoma imzolangan kundan e’tiboran uch ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlarni MAPning tegishli bo‘limiga joylashtiradi.	3 ish kuni